



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№22

30 ноябрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
16-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-16**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-16**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 45 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Saydaev O'ktam Tashbekovich ZILZILALAR	7
2. Akramov Umidjon Murodjon o'g'li UYSOZLIK KOMBINATI FAOLIYATINI OLIB BORISHDAGI MUAMMOLAR HAMDA ULARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	9
3. Aripov Ixtiyor Yusufovich TEXNOLOGIYA FANIDAN O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.....	11
4. Astanaliev Elmurod FUNCTIONAL SUPPORT OF THE AUTOMATED SYSTEM ON SIGNALING DEVICES.....	14
5. Axmedova Muhabbat Mirzayevna UZLUKSIZ TA'LIMDA TEXNOLOGIYA FANINI TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ORQALI HAYOTGA TAYYORLASH.....	17
6. Qurbonova Zarifa Rizayevna O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING O'RNI.....	18
7. Uluxodjayeva Shoxida Shuxratovna INFORMATIKA FANIDAN DARS BERADIGANLAR UCHUN MASLAHATLAR	20
8. Xamrayeva Norbibi, Qomatova Dildora XALQ XUNARMANDCHILIK SAN'ATINI ISH USULLARINI O'RGATISHDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	22
9. Egamberdiev Ixom Ergashevich AHOLI VA HUDUDLARNI TRANSPORT AVARIYALARI VA XALOKATLARIDAN MUHOFAZA QILISH.....	24
10. Jonibekov Shuhrat Baxtiyorovich AHOLINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA XARAKAT QILISHGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH.....	26
11. D.M. Ergashev, L.X. Mekhmonaliyev THE CHOICE AND CREATION OF THE ENVIRONMENTALLY FRIENDLY HARDENING ENVIRONMENT MADE OF THE COMPONENTS MANUFACTURED IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN	28
12. Xo'jayeva Malohat Matqurbonovna OQUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA TEHNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI VA O'RNI.....	30
13. Аликулова Дилноза Дустқобил кизи, Пулатов Шерзод Уткирович ОСНОВНЫЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ СОВМЕСТИМОСТИ	32
14. Қодиров Ғиёзжон Мирзажонович ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИНИ ТУЗЛАР ТАЪСИРИДАГИ ЎРОВЧИ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ СОРБЦИОН ХУСУСИЯТИНИ ЯХШИЛАШ.....	36
15. Турахужаева Нилуфар Назиржановна ЯНГИ ТАРКИБЛИ ТРИКОТАЖ ТЎҚИМАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚОТИ.....	38
16. O'raqov Shokir Ulashovich, Xidirova Aziza Abdullayivna TARAQQIYOTI SUSTLASHGANLIKNING KLINIK-PSIXOLOGIK TAVSIFI	40
17. Хашимов Ахмад Анварович, Кахаров Шукрулло Саъдулло ўғли ВИДЕОКЕТМА-КЕТЛИКЛАРНИ ИНДЕКСЛАШ ДАСТУРИ.....	41
18. Saidaxmadova Xurshida G'ulomjon qizi INTERNET TARIXI.....	43



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ZILZILALAR

Saydaev O'ktam Tashbekovich
Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi
Telefon raqami: +99891500-01-09
Elektron pochta manzili: Saydaev O'ktam 1973@gmail.com

Anotatsiya: Zilzila tabiatdagi eng dahshatli hodisalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha zilzilaning asosiy sababi yer po'sti shaklining o'zgarishi, xususan bukulishi, ko'tarilishi va pasayishidir. Yer po'sti shaklining o'zgarishi jarayonida yer bag'rida o'ta yuqori kuchlanishlar to'planadi. Natijada yer po'stining ayrim qismlari uzilib, har tarafga tarqaluvchi seysmik to'lqinlar tarzida nihoyatda katta energiya ajralib chiqadi, biz uni zilzila ya'ni yer yuzasining bo'ylama va ko'ndalan tebranishlari tarzida seziladi.

Kalit so'zlar: O'pirilish zilzilalari, Vulqon zilzilalari, Tektonik zilzilalar, Muhofaza tadbirlari, Aholining harakati.

Zilzilani oldindan bilish mumkinmi?

Zilzila tabiatdagi eng dahshatli hodisalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha zilzilaning asosiy sababi yer po'sti shaklining o'zgarishi, xususan bukulishi, ko'tarilishi va pasayishidir. Yer po'sti shaklining o'zgarishi jarayonida yer bag'rida o'ta yuqori kuchlanishlar to'planadi. Natijada yer po'stining ayrim qismlari uzilib, har tarafga tarqaluvchi seysmik to'lqinlar tarzida nihoyatda katta energiya ajralib chiqadi, biz uni zilzila ya'ni yer yuzasining bo'ylama va ko'ndalan tebranishlari tarzida sezamiz.

Zilzila tirik organizmlarga turlicha ta'sir etadi. Ko'pgina hayvonlar ayrim tabiiy hodisalarni eng takomil asboblardan yaxshiroq va aniqroq sezadi.

Ular chunonchi zilzila, toshqin, dengiz po'rtanalari kabi tabiiy ofatlar yaqinlashib kelayotganligini bexato sezishadi.

Zilzilaning kuchli zarbi shaharning markaziy qismida 10 km² maydonga tarqaldi. Tabiiy "zarba" harakati ta'sirida bo'lgan maydon dengiz sathiga nisbatan 40 mm, janubi-g'arbiy tarafi 10 mm ga "o'sdi". Ayni vaqtda shimoliy qismi biroz cho'kdi.

Sabablari va darakchilari. Zilzila ro'y berishi sababiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) ekzogen jarayonlar natijasida bo'ladigan (o'pirilish zilzilalari); 2) vulqon harakati natijasida bo'ladigan; 3) tog' hosil bo'lishi natijasida bo'ladigan – tektonik zilzilalar; 4) tektonik zilziladan farq qiluvchi chuqurdan bo'ladigan yoki plutonik zilzilalar.

O'pirilish zilzilalari. Ohaktosh qatlamlari yer osti suvi ta'siridan erib katta-katta chuqur g'or hosil qilishi mumkin. Karst reliefi keng tarqalgan o'lkalarda yopiq karstlarning ba'zilari juda katta bo'lib, ularning tepa qismi og'irlik kuchi ta'sirida bo'shliqqa o'pirilib tushadi. O'pirilgan joylarda ba'zan ko'l yoki voronkasimon katta chuqurlik hosil bo'ladi.

Vulqon zilzilalari. So'nman vulqonlarning harakati natijasida ham zilzila bo'lib turadi. Bunday zilzila faqat vulqonli o'lkalarga xos va uning kuchi 5-6 balldan oshmaydi.

Yerning chuqur qismida harorat katta bo'lishi tufayli hosil bo'lgan magmalardan ajralib chiquvchi gaz va bug'ni yer ostidan dahshatli kuch bilan otilib chiqishidan kuchli zilzila ro'y beradi.

Tektonik zilzilalar. Yer po'sti qattiq qatlam bo'lib, plitalar deb ataluvchi bir necha bo'laklarga bo'lingan. Yer po'sti ostidagi harakatdagi kuchlar plitalarni bir yilda bir necha santimetrga siljitadi. Plitalar harakatidagi nomuvofiqlik tosh yotqiziqklarining yorilishiga olib keladi. Bo'linish plitalar harakati natijasida hosil bo'ladigan kuchlanishning oshib borishi natijasida yuz beradi.



Har qanday uzilish yoki bo‘linishda bo‘lganidek, zilzila qandaydir bir joyda boshlanadi va atrofga tarqaladi. Bo‘linish boshlangan joy *gipotsentr* (zilzila o‘chog‘i), yer yuzasining gipotsentr ustidagi nuqtasi *epitsentr* deb ataladi.

Odatda birinchi tebranishdan so‘ng qayta zarbalar bo‘lishi muqarrar. Ular *aftershok* deb ataladi. Ular hatto bir necha kunlarga davom etishi mumkin.

Muhofaza tadbirlari. Mo‘rt qurilish materiallaridan tiklangan binoning zarbali kuchga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati sust ekanligini qadimgi binokorlar yaxshi bilishgan. Binoning bunday kuchlarga qarshi turg‘unligini oshirish yo‘llarini izlashgan. Poydevor ostiga solinadigan qamish qatlami ana shu izlanishlar samarasidir.

Prujina yoki rezinalarda bo‘ladigan elastik xossa qamish qatlamida ham bo‘ladi. Ana shu xossa tufayli qatlam zilzila vaqtida yerdan beriladigan turtkining bir qismini o‘zida “yutib”, qolgan qismini bino poydevoriga uzatadi. Demak, binoga ta‘sir etadigan zilzila kuchi to‘laligicha emas, balki ma‘lum darajada susaygan holda ta‘sir etadi. Bu esa binoning kam shikastlanishiga olib keladi.

Binoning zilzilaga bardoshini oshiradigan eng qulay va samarali antiseysmik choralardan biri – sinch. Sinchli uylar qurish uslubi halqimizga ko‘p asrlardan beri ma‘lum. Binokorlar g‘isht, guvala singari mahalliy qurilish materiallaridan tiklangan bir yoki ikki qavatli binolar qurishda yog‘och sinchdan foydalanganlar. Tarix sinchli uylarning zilzila ta‘siriga bardoshli ekanligini ko‘rsatdi.

Aholining harakati. Agar kuchli zilzila ro‘y berayotgan bo‘lsa o‘zimizni qanday tutsak to‘g‘ri bo‘ladi? Birinchi navbatda nima qilish keragu, nima qilmaslik kerak? Bu savollarga javobni respublikamizning har bir aholisi bilishi kerak.

Har doim zilzila vaqtida qaerda bo‘lsangiz, aynan o‘sha yerdan xavfsiz joyni topa bilish zarur. Ayrim odamlar zilzila yuz bergan damda qo‘rqib ketganlaridan vahima ichra lift va binodan chiqish joylariga qarab yugurishadi. Elektr ta‘minoti uzilgudek bo‘lsa, odamlar to‘la lift qavatlar o‘rtasida to‘xtab qoladi. Yo‘lkalarga tepadan otilib tushayotgan buyumlar, shisha siniqlari va bino bezaklarining bo‘laklari binodan yugurib chiqayotganlarga jarohat yetkazadi. Shu sababli, yaxshisi bino ichida qolgan holda yiqilayotgan mebellar va sochilib tushayotgan anjomlardan saqlanish uchun sizga yaqinroq yerda turgan stol ostidan panoh topgan ma‘qulroq. Mustahkam qurilgan binolar kuchli zilzila vaqtida ancha uzoq muddat, ayrimda 1 daqiqagacha chayqalib turishi mumkinligini yoddan chiqarmang.

Ochiq joyda bo‘lsangiz ag‘darilib tushishi mumkin bo‘lgan binolarga, elektr tarmoqlariga yaqin turmang. Transportda bo‘lsangiz ochiq joyda to‘xtating, tebranish o‘tib ketguncha kuting. Bu vaqtda metroda ketayotgan bo‘lsangiz, aslo sarosimaga tushmang. Chunki yer ostida yer ustidagiga qaraganda xavfsizroq bo‘lasiz. Ammo chiroq o‘chib qolishiga tayyor turing.

Ammo baribir, qandaydir sababga ko‘ra bino vayron bo‘lsa-yu, Siz vayrona uyumlari ostida qolib ketsangiz, aslo tushkunlikka tusha ko‘rmang. Bunday halokatli zilziladan bir necha soat o‘tiboq yirik ko‘lamdagi qutqaruv ishlari tashkil etiladi, vayrona uyumlarini tozalash uchun texnika jalb etiladi, mutaxassis-qutqaruvchilar ishga kirishadi. Tebranish tugaganidan so‘ng birinchi navbatda shikastlanganlarga yordam berish lozim. Birinchi yordam zarur bo‘lsa, tashkil eting. Tibbiy yordamga muhtojlarni aniqlang. Yong‘in xavfi bor joylarni bartaraf eting. Suv, gaz, elektr tarmoqlarida shikastlanish bor-yo‘qligini aniqlang. Zinhor sham yoki gugurtdan foydalanmang. Elektr simlariga yaqinlashmang. Kanalizatsiya tarmoqlarini ko‘zdan kechirmasdan turib, undan foydalanmang. Ruhiy yordamga muhtojlarni tinchlantirishga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun: Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni: Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori № 455, 27 oktyabr.



UDK 69.002.2

UYSOZLIK KOMBINATI FAOLIYATINI OLIB BORISHDAGI MUAMMOLAR HAMDA ULARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Akramov Umidjon Murodjon o'g'li
Farg'ona politexnika instituti magistranti
Telefon:+998(99) 086 20 26
umid1992akramov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada temirbeton yirik yig'ma panellarni tayyorlovchi uysozlik kombinati ishi tahlil qilingan va uni qaytadan tiklash hamda zamonaviy rivojlantirish istiqbollari izlanmoqda.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, qurilish sohasidagi kamchiliklar, yig'ma panellar, uysozlik kombinatlari, qoplamalar.

Bugungi texnologik davrda jahonda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususan, hozirgi pandemiya butun dunyoni qamrab olgan davr ekanligiga qaramasdan mamlakatimizda qurilish sohasi rivojlanishda ildamlamoqda hamda bu sohada ko'plab ishlar olib borilmoqda. Mana shunday inqiroz davrida boshqa hech bir soha qurilish sohasi kabi rivoj topmayapti. Qolaversa, dunyoda hech bir soha yo'qki qurilish tizimi kirib bormagan. Bundan tashqari, yurtimizda ko'plab rivojlanishlar, qator innovatsion loyihalar amalga oshirib kelinmoqda.

Respublikada barpo etilayotgan yirik obyektlar bilan bir qatorda, qishloqlarda ham minglab xususiy kottedjlar va shaxarlarda ko'p qavatli turar-joy binolari qurilmoqda.

Yaqin yillar ichida yurtimizning qurilish sohasi ko'zga ko'rinarli darajada rivojlandi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Buning yorqin misoli o'laroq poytaxtimiz Toshkent shahrining Chilonzor tumanidagi va yana boshqa tuman, shaharlardagi juda qisqa muddatda karantinga mo'ljallangan kasalxonalarining qurib foydalanishga topshirilganligini olishimiz mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, qurilish sohasi rivojini ortga tortayotgan qator muammolar ham yo'q emas. Jumladan, yurtimizning Buxoro, Samarqand, Sirdaryo va yana boshqa viloyatlaridagi sodir bo'lgan hamda yurtdoshlarimizning tinch hayotini buzgan baxtsiz hodisalar tufayli yuzaga kelgan vayronagarchiliklarni olishimiz mumkin. Muhtaram prezidentimizning oqilona yuritgan say-harakati va shaxsan o'zi bu obodonchilik ishlarni ustida turib olib borgan amaliy tadbirlari bu muammolarni o'z vaqtida hal etilishiga zamin yaratdi.

Yuqoridagi sodir bo'lgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan aholi turar-joylaridagi vayronagarchiliklar qurilish sohasini bir qator kamchiliklarini ochib berdi. Shu jumladan, Buxoro viloyatidagi endigina qurilgan kotej tipidagi turar-joylar konstruksiyalarini tashqi ta'sirlarga bardosh berolmagani bunga bir misoldir.

Ana shunday vaqtlarda uysozlik kombinatlari mahsulotlaridan foydalangan holda barpo etiladigan turar-joylarga keskin ehtiyoj seziladi. USK bino va inshootlarining afzalliklari shundan iboratki, birinchi navbatda, o'zining mustahkamligi, qolaversa, tashqi muhit ta'sirlariga maksimal chidamliligi bilan ajralib turadi, qolaversa, USK imoratlari "Shaharsozlik normalari va qoidalari" asosida qurilib kelingan va binolar oralig'idagi masofalar ham standartlar asosida rejalashtirilgan. Bugungi qurilayotgan binolar esa ana shu normalarga rioya etilmagan holda barpo etilayotganini ko'plab shaharlarda uchramoqda. Xususan, Farg'ona va Marg'ilon shaharlaridagi turar-joy mavzellaridagi me'yorlar bo'yicha qoldirilgan bo'sh maydonlarga qo'shimcha binolar qurilayotgani buning isbotidir.

USK kombinatlarining mana shunday jihatlarini etiborga olmagan holda bugungi kunda ularning faoliyati tugatilib, USK materiallaridan voz kechilib, zavodlar yopilib ketgan. Bunga qanday sabablar bo'lishi mumkin? Mazkur savolga javob topishga harakat qilib ko'ramiz:

birinchidan, prekast (korxon) texnologiyasini keng joriy etish bir xil turdagi ko'p sonli binolarning paydo bo'lishiga olib kelishi va bu o'z navbatida mintaqa arxitekturasining buzilishiga sabab bo'lishi;

ikkinchidan, USK mahsulotlari asosida faqat turar-joy binolari qurilishi ko'zda tutilganligi, sanoat binolari hamda infratuzilma ob'ektlarini qurishning imkoni yo'qligi;

uchinchidan, USK texnika va texnologiyalarining eskirib zamonaviy talablarga javob bermay qolganligi;

to'rtinchidan, mazkur kombinatlarning aksariyati sobiq ittifoq davrida tashkil etilgan bo'lib, uning mahsuloti uchun kerakli materiallar Rossiya Federatsiyasidan keltiriladi. Keyinchalik bu mahsulotlarning narxi ko'tarilishi natijasida kombinatda tayyorlangan mahsulotlarning qurilish maydoniga qadar yetib borishi juda qimmatga tusha boshladi. Shuning natijasida bu mahsulotga talab pasaydi.

Birinchi kamchilik yuzasidan shuni aytish mumkinki, USK panellari faqat bir xil o'lchamda tayyorlangan ya'ni 2,6 x 2,8, 2,6 x 3,0, 2,6 x 3,2 bo'lgan.

Uysozlik kombinatining yangi asosiy texnologik tuzilmalaridan biri bu panel ishlab chiqarish uchun universal rotor vibrostendlaridir. Universal aylanadigan tebranish stendlari yangi zamonaviy shahar binolarini qurish uchun panellar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Endilikda esa bu o'lchamlar 5,5 dan 6 metrgacha bo'lib, o'lchamlari mijozning xohishiga bog'liq ravishda tayyorlanadi va mazkur panellarni rigel, kolonnalar bilan biriktirib loyihalash asosida nafaqat turar-joylar, balki sanoat binolari, infratuzilma obyektlari va ma'muriy binolar ham barpo etish mumkin.



1-rasm. Panel ishlab chiqarish uchun universal rotor vibrostend

Ikkinchi va uchinchi kamchiliklarni bartaraf etishning eng samarali usuli ko'plab rivojlangan davlatlarda shu jumladan, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Rossiya va Qozog'istonda USK sohasidagi qo'llanilayotgan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir.

To'rtinchi kamchilik yuzasidan esa avvalo faoliyati to'xtatib qo'yilgan USK kombinatlarini tiklash bilan birga kombinat tizimida yangi zamonaviy asbob-uskunalar asosida kerakli materiallarni yetkazib beruvchi zavod ham barpo etilsa USK ish faoliyati uzluksiz davom etishini ta'minlaydi.

Taklif sifatida ta'kidlash mumkinki - respublikamizdagi mavjud bo'lgan barcha uysozlik kombinatlari faoliyatini qayta tiklashda ichki va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etilib, malakali yosh mutaxassislarining ishini tashkil etib, ushbu korxonalarni yangidan barpo etish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev I.N., Yunusaliev E.M. Raxmanov B.K., Akramov U.M. «Voprosy jilishno-graj-danskogo stroitel'stva v ferganskoy doline». Materialy 1 Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii «Resursosberegayushie tekhnologii na jeleznodorojnom transporte innovatsionnye tekhnologii o stroitel'stve» Tashkentskiy institut injenerov jeleznodorojnogo transport. Vypusk 15. Str.162-166. Tashkent-2020.

2. Abdullaev I.N., Akramov U.M. «Qirguli uysozlik kombinati (USK) faoliyatining qisqa tahlili va istiqboli» «O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar» mavzusidagi respublika 18-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari 16-qism. 55-57 bet. Toshkent-2020.

3. www.vibropress.biz internet sayti.

4. mdsk.gomel.by internet sayti.

5. dsk1.ru internet sayti.



TEKNOLOGIYA FANIDAN O‘QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEKNOLOGIYALARI.

Aripov Ixtiyor Yusufovich

NVXTXQTMOXM. O‘qituvchisi.

*Karmana tumani 2-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabing
Texnologiya fan o‘qituvchisi Qurbonova Zamira*

Annotatsiya: Kompetensiyali yondoshuv asosida shakllantirilgan DTS amaliyotga joriy etish, ta‘lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi. Innovatsiyalarni tatbiq etishga o‘qituvchilarning psixologik tayyorligi pedagogik innovatsion jarayonning muxim sharti hisoblanadi. Shuning uchun, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda o‘qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatini innovatsion yo‘naltirish, ularni innovatsion pedagogik jarayonlarga tayyorlash masalalariga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Kalit so‘zi: innovatsion texnologiyalar, kompetensiyali yondoshuv, kompetensiyalar texnologiya, ta‘lim-tarbiya, texnologiya, davlat ta‘lim standarti, o‘quv dasturi, bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy kompetentlik

O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qaroriga muvofiq uzluksiz ta‘lim, xususan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining ta‘lim mazmuni yangilandi, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlari bo‘yicha DTS kompetensiyali yondoshuv asosida qayta ishlandi. Mazkur kompetensiyali yondoshuv asosida shakllantirilgan DTS amaliyotga joriy etish ta‘lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarining ta‘lim tizimidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish uzluksiz texnologiya ta‘lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish zarurligini ko‘rsatdi. Uzluksiz texnologiya ta‘lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish orqali quyidagi vazifalarni amal oshirish: Ta‘lim-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondashuv o‘qitish maqsadlariga erishish uchun ta‘lim mazmunini boyitish o‘quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon beradigan umumiy prinsiplar yig‘indisi sanaladi. O‘quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo‘nalishlardagi muammolarni o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalar, o‘zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, muammoli vaziyatlarda talab etiladigan faoliyatni maqsadga muvofiq bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish; Texnologiya ta‘lim mazmunini tanlash va metodik ta‘minotini yaratishda o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o‘zida o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash, o‘zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o‘quv topshiriqlari bo‘lishiga e‘tibor qaratish; Texnologiya ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o‘quvchilarda DTS bilan me‘yorlangan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, shuningdek, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko‘nikmalarni egallash, matematik savodxonlik, ijtimoiy faollikka ega bo‘lish, o‘quv muammolarini mustaqil hal etishga doir tajribalarni egallashlariga sharoit yaratish; Ta‘lim-tarbiya jarayonining natijalari mazkur jarayonning muayyan bosqichida erishilgan natijalar, ya‘ni o‘quvchilar tomonidan kompetensiyaga asos bo‘ladigan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirganlik darajalariga qarab baho berish; Kompetensiyali yondashuvda – o‘qitish maqsadlari o‘quvchilar tomonidan o‘z-o‘zini anglash, ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quv maqsadlariga erishish yo‘llarini tushunish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo‘nalishlarni mo‘ljallash nazarda tutish zarur. Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra darajalarga ajratiladi. O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat texnologiya o‘quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy



kompetensiyalar deyiladi. Tayanch kompetensiyalar – umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv rejasidan o‘rin olgan barcha o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar sanaladi. Umumiy (predmetli) kompetensiyalar- o‘quv rejadan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o‘quv fanlarni o‘qitishda o‘zaro fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutiladi. Xususiy (texnologiya) kompetensiyalar – texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalar hisoblanadi. Texnologiya fanidan o‘quvchining kompetensiyasi – biologiya fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetentlikka yo‘naltirilgan darslarni tashkil etish va darslarning texnologik xaritasini yaratish bo‘yicha xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarga kompetentlikka yo‘naltirilgan darslarni tashkil etish bo‘yicha ma’lumotlarni berish va uni tushunarli tarzda yetkazish. ”Kompetentlik” (ingl. “competence” - “qobiliyat”) - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish demakdir. ”Kompetentlik” tushunchasi ta’lim soxosiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishi shi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalga yuqori darajada qo‘llay olinishi Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiyamutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada mufaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo‘ladigan qobliyatlar majmui. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikasiya texnologiyalar, ishlab chiqarish soxalarining tez sur‘atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta’lim tizimi xodimlaridan ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, xar bir tizim xodimi, ayniqsa o‘qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya ishlarining har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlagan xolda amalga oshirilishi, ta’limning xamma uchun tengligini ta’minlanishi, o‘quvchilarni mustaqil xayotga tayyorlash, ularda fuqarolik tuyg‘usi, oila va davlat oldida mas’uliyat xis qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning qizikishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallashlari va xar tomonlama rivojlanishlari uchun ularga maksimal darajada qulay sharoitlarni yaratish ta’lim sifatini oshirishning eng muxdm omili hisoblanadi. Agarda bunday sharoitlar yaratilmasa, uzluksiz ta’lim tizimidagi majburiy bosqich bo‘lgan umumiy o‘rta ta’limni muvaffaqiyatli deb e’tirof etib bo‘lmaydi. Shu jixatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish va uni xayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim siyosatining bugungi kundagi muxim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan innovatsion pedagogik faoliyat o‘qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyati xamda o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘p hollarda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq, etganda, birinchi o‘ringa texnik va tashkiliy masalalar, keyingi o‘ringa esa o‘qituvchi va o‘quvchilarni innovatsion jarayonlarga tayyorlash masalalari qo‘yiladi. Innovatsiyalarni tatbiq etishga o‘qituvchilarning psixologik tayyorligi pedagogik innovatsion jarayonning muxim sharti hisoblanadi. Shuning uchun, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda o‘qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatini innovatsion yo‘naltirish, ularni innovatsion pedagogik jarayonlarga tayyorlash masalalariga alohida axamiyat qaratish lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. – T.: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori. – T.: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 11-son, 167-modda.

4. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019.-134 b.

5. O‘.Tohirov. Mehnat ta’limini maznunan modernizatsiyalashda “Ustoz -shogird” faoliyatini tashkil etish texnologiyasi. “Maktab va hayot” ilmiy metodik jurnali. – T.: 2012 yil 3-son B.25-



FUNCTIONAL SUPPORT OF THE AUTOMATED SYSTEM ON SIGNALING DEVICES

Astanaliev Elmurod
master's student
Tashkent State Transport University
elmurod1246@mail.ru 99-408-41-97

Annotation. The article discusses the issues of the functional support of the automated system of accounting and control of railway automation and remote control devices: signaling, centralization and blocking; components of the electronic-executive part of the system are presented; proposed a conceptual model and describes the design features of the developed automated system.

Keywords: railway automation and remote control system, alarm devices, centralization and blocking, components of the electronic-executive part, conceptual model and design of an automated system of accounting and control devices.

The automated system of accounting and control of signaling devices is designed to automate the processes of passing documents in an organization and provides the following capabilities:

- registration of documents;
- distribution of electronic documents between employees;
- control of the passage of documents, and the execution of related orders;
- creation of reports and logs;
- exchange of electronic messages between employees.

The developed system is multi-user, it provides coordinated joint work of a team of employees. This is due to both the structure of the system and the requirements for its configuration: identification of system users, management of access rights to processed information, ensuring the integrity and safety of information.

The system has a client-server architecture and must be operated in the local network of the organization. Such a system design allows to provide the following key characteristics:

- the organization of an arbitrary, easily changeable number of jobs, determined by the amount of work, the nature of the tasks solved in the organization and the number of workers required for this;
- effective protection of the integrity of information in the multi-user access mode;
- ensuring the safety of information due to its centralized archiving and recovery;
- assignment - a task related to the execution of a document issued to an employee by the organization's management;
- execution of a document - a sequence of actions by an employee (responsible executor) or a group of employees (co-executors) performing instructions for processing a document and further transferring it to subsequent executors
- document execution control - tracking the actual passage of the document and the timing of its execution in the organization, performed by a specially appointed user - the controller [1].

Components of the electronic executive system

Server program. The functioning of the document management system is based on the use of a special program - the document management server. The workflow server performs the main functions that ensure the work of users: receiving requests, accessing the database, processing information, and issuing results. Until the main program is launched, user interaction with the document management system and work with documents is impossible.

The workflow server program itself runs on a computer connected to the organization's network, which is also called a server. For the document flow server, it is possible to select a separate computer or use one of the network workstations, depending on the amount of work with documents. As a rough estimate, we can say that with small, up to a hundred per day, document flows, it is quite acceptable to run a document flow server on a middle-class workstation, while it can be simultaneously used for ordinary office work without a serious decrease in speed. It should be noted, however, that the registration of new documents and the creation of document-related jobs and messages lead to an increase in the size of the database and an increase in the



disk space occupied by it, therefore, you should ensure sufficient hard disk capacity to take into account the prospects for the growth of document flow.

The administrative part of the program. A system that many users work with should be centrally managed. This function is performed by a specially designated employee or employees who implement a single consistent policy for setting up and managing the system, who are called system administrators.

The responsibilities of the system administrator include, in particular, the following:

- reflection in the system of the current structure of the organization;
- registration of users;
- viewing system messages and error messages;
- updating database tables.

In addition to these functions, the system administrator also provides starting and stopping the workflow server, setting up and maintaining the system, creating backups of the system databases and restoring the system in case of failures.

Client side. Employees of an organization registered in the system and using it to process documents determined by their official duties are called system users. Depending on the type of activity, the system user is assigned by the administrator the rights to perform certain actions and access certain documents [2].

The system users can be assigned the following rights:

- control over the execution of tasks and orders. A user endowed with such rights can perform the functions of a controller and exercise control over the execution of documents and orders to employees;
- system administration. A user endowed with such rights can perform the functions of a system administrator, in particular, create user accounts, assign rights to users, change system settings;
- the user can also assign a level of access to each of the available document streams by including in the corresponding list:
- document editing (registrar rights) - a list of users authorized to register new documents in this stream.




Fig. 1. The scheme of functioning of the Automated system of accounting and control of signaling devices

Since the system is a windowed version, during the operation of which we move from one window to another. The program also has a database in the form of a client-server. Let's start with the server side.

Designing a Server Program

The workflow server program performs several functions:

- processing customer requests;
- output of service information (logs);
- serves as an intermediary between the client and the database;



– carries out the user registration procedure.

The structural diagram of the functioning of the Automated system of accounting and control of signaling devices is shown in Fig. 1.

Requests to the server program should come over the TCP / IP protocol, since data should not be lost along the way. It was decided to use a set of low-level NetSockets classes as a software means of data transfer, allowing to work with managed connections. Since there can be several clients in this system (there should be no software restrictions on the number of clients; their number is limited by the network bandwidth and hardware performance), the server program must work with them separately. Thus, it is planned to allocate clients into independent streams, which will be born when a signal about a new connection is received and closed when the user is disconnected. It is necessary to create several possible types of network requests that allow working in different modes of data transmission: sending, receiving, sending and receiving simultaneously.

To comply with the principles of object-oriented programming, it is required to divide the code by semantic features into separate classes. Based on the functions performed by the server program, three main classes can be distinguished:

- interface class for user interaction;
- client networking class;
- database link class.

To reduce the number of additional programs, a system user registration tool must be built into the server interface. As the main identification data, the username (login or pseudonym), real name, surname and patronymic, as well as a password must be entered. It is also necessary to take into account additional user identifiers in the organization: phone number, location address and e-mail. To increase the level of security of the system, the password must be stored in the database in encrypted form [3].

Electronic document flow based on full functional support and development of the electronic executive part of the system for monitoring and accounting for railway automation and telemechanics devices in the form of ASO-CRAT allows to significantly increase the efficiency of control and signaling and communication distances, as well as enterprises associated with the processing of technical documents.

The article provides a description of the main components of the ASO-CRAT. The structure of data processing, conceptual model, operation scheme, design features of the developed automated accounting and control system are presented.

References

1. Bulavsky P.E. Conceptual model of electronic document management of technical documentation // Transport of the Russian Federation. - 2011. - No. 1 (32). - С. 60-63.
2. Baratov D. Kh., Aripov NM Development of a system for accounting and control of electrotechnical complexes of railway automation and telemechanics // Fundamental and applied scientific research: topical issues. - 2018 .-- P. 64.
3. Dubranovsky I.V. Verification of C # -programs: translation from the C # -light language to the C # -kernel language // Preprint of the ISI SB RAS JV. - 2004 .-- T. 120.



UZLUKSIZ TA'LIMDA TEXNOLOGIYA FANINI TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ORQALI HAYOTGA TAYYORLASH

Axmedova Muhabbat Mirzayevna
Buxoro shahar skolioz bilan kasallangan bolalar uchun ixtisoslashgan
Sanatoriy turidagi 23-son makyab-internati texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya fanini takomillashtirish, o'qitishda zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish qanchalik samara berishi to'g'risida fikrlar yoritiladi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali hayotga tayyorlash.

Kalit so'zlar: texnologiya, texnik jihozlar, interaktiv yondashuv, innovatsion g'oyalar.

Kelajak avlodning ma'lum hunar va kasbga yo'naltirish eng katta vazifa va ma'suliyat hisoblanadi. Barcha sohalar rivojlanayotgan bir paytda texnologiya fani ham zamonaviy ko'rinish kasb etmoqda. Texnologiya fani yoshlarni kasb bilan birga hunarga ham yo'naltiradigan soha hisoblanadi. Bu fan orqali o'quvchilar juda katta ma'lumot va bilimlarga ega bo'lishlari mumkin. Buning uchun ularga ushbu fanni qiziqarliroq va soddaroq o'tish lozim. Bilamizki, o'quvchilarni fanga qiziqtirishning eng oson yo'li rasm va ko'rgazmali qurollardan foydalanish hisoblanadi. Shu bilan birga bugun texnika vositalaridan ham foydalanish mumkin. O'quvchilar o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi uchun yoshligidan to'g'ri kasb tanlashi lozim. Aynan ushbu tanlovda ham texnologiya fanining o'rni beqiyos. Mening fikrimcha texnologiyalar fanni rivojlanishi va takomillashishiga olib keladi. Texnologiya fanidan qo'llanmalar bo'lishi mumkin, ammo elektron ma'lumotlar bazasi kamchilikni tashkil etadi.

Texnologiya fanida izlanish sifatida yangi loyihalarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, menimcha o'quvchilarni ushbu fan bilan kundalik turmushda shug'ullanishi uchun mobil ilova yaratish mumkin. Ilova turli ixtisoslikka bo'linishi mumkin. Masalan, hunarga yo'naltirilgan bo'lsa, turli xil hunarlardan birini tanlash imkoniyati bo'lsa. Zargarlik sohasini oladigan bo'lsak, aynan zargarlikka yo'naltirilgan ma'lumotlar, kitoblar, vidyolar, rasmlar, umuman, jamiki zargarlikka doir materiallar joylansa. Ilovadan turli xil qo'l mehnatlari joy oladi. To'g'ri ustossiz shogird shogird emas degan maqol bor, ammo bugun zamon tezlashishni talab qilmoqda. Ayniqsa, pandemiya jarayoni sababli ham onlayn ta'lim jarayoni o'quvchilar uchun qulaydir. Bu juda qiziqarli bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'quvchi yasamoqchi bo'lgan ishi uchun ma'lum bir vaqt talab etilsa, ilova ushbu vaqt oralig'ini eslata oladi. Ilovani yanada zamonaviylashtirish uchun undan foydalanayotgan yoshlarni bir-biri bilan suhbat qila oladigan va yasagan yoki amalga oshirgan qo'l mehnatini bir-biriga jo'nata oladigan maxsus joyi bo'lishi kerak.

Qizlarning sevimli va qiziqib o'rganadigan do'ppido'zlik, kashtachilik va tikuvchilik kabi hunarlaridan ham vidyo materiallar tayyorlash ular uchun qulaylik yaratishga yordam bergan bo'ladi.

Shu bilan birga, texnologiya fani qo'l mehnatlari, hunar o'rgatish bilan birga o'quvchilarning kelajakdagi kasblarini to'g'ri tanlashda ham yordam beradi. Kasb tanlash uchun ham turli yangicha yondashuvlardan foydalanish mumkin deb o'ylayman. Har bitta kasbni bitta vidyo qilinsa va masofaviy ta'lim dasturidagi darslar berilgandan so'ng televizordan ko'rsatilsa, o'quvchi har birini ko'rib xulosa chiqara olishi mumkin. Qaysi kasbga qiziqishi va qaysi kasb uchun harakat qila olishini bilishi, kelajakda kasbida uchraydigan qiyinchiliklarga bardosh berishi uchun bugundan tayyor bo'lib borishi mumkin.

Yuqoridagi yangicha pozitsiyalarni tashkil qilish orqali, texnologiya fanini yo'nalishlar bo'yicha chuqurroq o'rganish, yo'nalishlarni bugungi kun talabi bo'yicha o'z ixtirolarini olib kirish, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish, har bir buyumni tayyorlash bo'yicha dizayner-modelyerlik kasbi bo'yicha yondasha olish, lider bo'lish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolga intilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Sharipov "Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish"
T2017



О‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING O‘RNI

*Qurbonova Zarifa Rizayevna
Navoiy viloyati, Zarafshon shahar
10-umumta’lim maktabining
texnologiya fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Kasb-hunar ta’lim-tarbiya jarayonining oliy maqsadlaridan biri Respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga mustaqil fikrlovchi, ijodiy faoliyat ko‘rsatuvchi kichik mutaxassis kadrlarni tayyorlab berishdan iborat. Ta’lim-tarbiya jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodiy faoliyatni amalga oshiruvchi kichik mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan talab bajarilmaydi, toki bo‘lajak mutaxassislarda o‘zlashtirilgan majmuaviy bilimlarni qo‘llash qobiliyati shakllangan bo‘lmasa. Integratsiya: o‘zaro birlashish, o‘zaro aloqa, u yoki bu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan ilmiy g‘oyalar, prinsiplar, tushunchalar, qonunlar va nazariyalar birligi ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar. Kasb- hunar , ta’lim tarbiya , integratsiya , tiklash, kasbga moslashish bosqichi, kasbni asosli tanlovga tayyorlash bosqichi, pedagogik-psixologik tashxis bosqichi.

Integratsiya – o‘quv fanlarining o‘zaro aloqadorligi, lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qurish, tiklash, to‘ldirish; “integr”-to‘liq, butun, yaxlit degan ma’noni anglatadi. Integratsiya – bir-biri bilan organik birlashib ketish, bir-biriga singish, birlashish, yagona barqaror umumlashgan yaxlitlikni hosil qilish demakdir.

Integratsiyani o‘quv predmetlar orasidagi aloqadorlik shakli, asosiy o‘rinda fanlar tabaqalanishi natijasida mavjud ilgarigi to‘plangan kamchiliklarni yengib chiqish imkoniyati sifatida qarash mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchilar tomonidan mos ravishda metod va texnologiyalarni to‘g‘ri tanlay olishi va qo‘llay olishi bilan belgilanadi. Kasbga yo‘naltirish ishiga kompleks yondashish o‘quvchilarni har tomonlama o‘rganishni, o‘quvchilar bilan ishlashning optimal metod va shakllarini aniqlashni taqozo etadi.

Fikrimizga ko‘ra, metodlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bosqichlariga mutanosib ravishda tasniflash ta’lim jarayonini tashkil qilish nuqtai nazaridan samaraliroq hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonining quyidagi bosqichlarini asos sifatida qabul qilish mumkin:

1. Pedagogik-psixologik tashxis bosqichi – o‘quvchilarni kuzatish, diagnostik suhbatlar o‘tkazish.

2. Kasbni asosli tanlovga tayyorlash bosqichi – o‘quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish, ular shaxsini o‘rganish.

3. Kasbga moslashish bosqichi – o‘quvchilar bilimni oshirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirishlari uchun fanlarni chuqur o‘rgatish, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga tayyorlashdan iboratdir.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda texnologiya fanining ahamiyati shundaki, har bir o‘quv mashg‘uloti jarayonida amaliy ish bajariladi, bu amaliy ish biror bir kasbga borib taqaladi. O‘quvchilar ongiga kasblar haqida tasavvur uyg‘otishni boshlang‘ich sinflardan oq texnologiya darslarida buyumlar tayyorlashni, qog‘oz bilan ishlashni jarayonida tushunchalar berib boriladi. 5-sinfga o‘tgach esa texnologiya darslarining har bir soatida nazariy va amaliy darslar jarayonida turli kasblar bilan tanishtirib boriladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishlash bo‘limida oshpazlik kasbi, mahsulotlarning tarkibini o‘rganish jarayonida laborantlik kasbi, sotuvchilik kasbi, saralovchi ekspert, nonvoylik va boshqa turdagi kasblar bilan tanishib, qiziqib boradilar. Bichish-tikish bo‘limida esa to‘quvchilik, yigiruvchi, tikuvchi, bichuvchi, pardoizlovchi kabi kasblar bilan tanishibgina qolmay, shu ishlarni bajarish jarayonida qiziqish, xohish-istaklari shakllanib, qobiliyatlari uyg‘onib, rivojlanib shakllanib boradi. O‘quvchida ma’lum bir sohaga nisbatan xohish-istak qiziqishga aylanib, qobiliyat rivojlanib, tadbirkorlik va biznesga nisbatan qiziqishlari ortib boradi. 8-9 sinflarda esa kasbga yo‘naltirish darslarida esa ishlab chiqarish korxonalarini va turli kasblar, ularni qayerda o‘rganish mumkinligi haqida texnologiya darslarida bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilinadi. Texnologiya darslarida o‘qituvchi har bir o‘quvchining



xohish-istaklari, qiziqish-qobiliyatlarini o'rganishi va to'g'ri yo'llanma berishi muhim ahamiyatga ega.

Kasb tanlash o'ta murakkab va muhim jarayon bo'lib, bu tanlov qanchalik ongli va asosli bo'lsa, inson umrining sermazmun bo'lishi kafolatlanadi. Chunki kasb tanlayotganda inson bu kasbdan nima kutayotganligini aniq tasavvur qilishi va albatta, u yoki bu mutaxassislik bo'yicha faoliyat yuritishiga nima sabab bo'lganligi, tanlangan kasbiga qiziqishi so'nmasligi uchun kasbning mazmuni nimadam iborat bo'lishi kerakligi, qanday ish haqi uni qoniqtiradi, bu kasbni mukammal egallash uchun qancha vaqt va kuch sarflanadi va boshqa savollarga javob topa olishi muhim sanaladi.

Texnologiya darslarida har bir kasb haqida chuqur ma'lumot berish bilan birgalikda psixolog, ota-onalarning birgalikda ish olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya darslarida turli bosqichlarda kasblar haqida ma'lumotlar berish, har xil metodlar orqali tushuntirish o'quvchining muayyan kasbga nisbatan qiziqish va qobiliyatini shakllantirishga kata yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida kasblar haqida ilk tushunchalar hosil qilinsa, 5-sinfga kelib 9-sinfgacha bosqichma-bosqich kasblar haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilinadi.

1-bosqich: Kasb tanlashga o'quvchini aqlan va ruhan tayyorlash;

2-bosqich: Kasbning ta'rifi va tabiatimhaaqida bilim berish;

3-bosqich: Qiziqish tushunchasini ochib berish va o'quvchining qiziqishini aniqlash;

4-bosqich: Qobiliyat tushunchasini ochib berish va o'quvchining qobiliyatini aniqlash;

5-bosqich: Kasb tanlovini amalga oshirish usullari va algoritmini ochib berish;

6-bosqich: Ilovalar asosida kasb tanlovini tajriba tariqasida amalga oshirish.

Darslardan asosiy maqsad – zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda yetuk, barkamol, bilimni insonni tarbiyalash. Yoshlarni o'z qiziqish, qobiliyati asosida kasb tanlashga yordamlashishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kasb qanday tanlanadi? Anvar Jalolov, Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2010.
2. Kasbiy fanlar metodikasi jurnali, Toshkent, "Avtonashr", 2014, №7
3. Maktab va hayot ilmiy metodik jurnal, Toshkent, 2015, №2



INFORMATIKA FANIDAN DARS BERADIGANLAR UCHUN MASLAHATLAR

*Uluxodjayeva Shoxida Shuxratovna
Namangan shahar 5-umumta’lim
maktabi informatika fani o’qituvchisi
e-mail: article.20@mail.ru*

Annotatsiya. Shunday qilib, siz kompyuter fanini o’qitishning sehrli dunyosiga kirmoqchisiz, darslarni rejalashtirishning ijodkorligini kodlashning qoniqarli muammolarini hal qilish bilan birlashtirasiz. O’quv dasturidan tortib to sinf madaniyatiga qadar, birinchi marta mavzuni o’qitishga sho’ng’iganingizda ko’p narsalarni o’ylashingiz kerak.

Kalit so’zlar: informatika, kompyuter, dastur, fan, yordam, kompetensiya.

Informatika darslari uchun oldindan tayyorlangan ko’plab o’quv dasturlari mavjud va ularning bir nechtasi bepul. Siz o’zingizning sinfingiz doirasini va ketma-ketligini loyihalashtirishda yordam beradigan va o’zingiz yoqtirgan mashg’ulotlarni tanlash uchun oldindan tayyorlangan kursning o’quv rejasidan foydalanishingiz mumkin.

Agar sizda ikkitadan ortiq yangi tayyorgarliklar mavjud bo’lsa, oldindan tayyorlangan mashg’ulotlardagi mashg’ulotlar hayot aqldan ozganida ham pasayish bo’lishi mumkin.

Vaqt o’tishi bilan siz butun sinflarni noldan yaratishingiz mumkin. Ammo siz yangi boshlaganingizda, gigantlarning elkasida turish va ilgari qilingan narsalarga asoslanish yanada samaraliroq. Va siz hali ham o’quv dasturini shaxsiylashtirishingiz va uni o’zingiz qilishingiz mumkin.

O’quvchilaringizdan kamida bir qadam oldinda bo’ling. Qaysi o’quv dasturidan qat’i nazar, o’zingizning o’quvchilaringiz nimalarni boshdan kechirayotganini tushunish uchun o’zingiz bajarganingizga ishonch hosil qiling. Mashqlar va laboratoriyalarni bajarish o’quvchilarga yaxshiroq yordam berishga va xatolarni oldindan bilishga yordam beradi.

Shuningdek, siz yangi tillarni yoki kompyuter dasturlarini o’rganishingiz kerak bo’lishi mumkin. Agar siz kompyuter fanlari darajasiga ega bo’lsangiz ham, u Scratch, App Inventor yoki p5.js saytlarini qamrab olmagan bo’lishi mumkin. O’quvchilarning savollariga yaxshiroq javob berishingiz uchun iloji boricha yangi texnologiyalar bilan tanishishingiz yaxshiroqdir.

Sinfda izlanish va xatolarga yo’l qo’yish madaniyatini yarating. Agar siz o’quvchilar savollariga javob bera olsangiz juda yaxshi, lekin siz har doim ham javob bera olmaysiz. Maktabning birinchi kundan boshlab o’quvchilar bilan kompyuter fanlari - bu hech kim hamma narsani bilmaydigan ulkan soha ekanligi haqidagi haqiqatni aytib bering. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish bu javoblarga ega bo’lish uchun emas, balki o’zingizning resurslaringiz: sinfdoshlaringiz, Internet va o’qituvchingiz yordamida narsalarni aniqlay bilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

O’quvchilarni savol tug’ilganda, narsalarni aniqlash uchun shaxsiy vakolatli protokolga rioya qilishni tavsiya eting. “Uchtadan so’ra, keyin mendan” kabi metodni islatishingiz mumkin:

- Tengdoshingizdan so’rang
- Google buni biladi
- O’qituvchidan so’rang

Ushbu metod o’quvchilarga muammolarni mustaqil hal qilishda yordam beradi, shuningdek o’qituvchini savollar bilan bombardimon qilinmasligini ta’minlaydi.

Nihoyat, xatolar va xatolarni normalizatsiya qiling. O’quvchilarni xatolar dasturchining kundalik hayotining bir qismi ekanligiga ishonch hosil qiling va kodlar qatorida xatolarni o’zingiz ko’rib chiqing. O’zingizning sinfingizda yuzaga keladigan barcha xatolarni hisoblab chiqadigan "Xato Tally" dasturini boshlashni o’ylab ko’ring va ularni bugungi kunda sinf o’rgangan barcha narsalarning ifodasi sifatida nishonlang.

Kompyuterdan foydalanish bo’yicha aniq taxminlarni o’rnatish. Siz o’quvchilar dasturlash mashqlari bilan ishlashlari kerak bo’lgan paytda ular oy’in o’ynashlarini xohlamaysiz. Sinflarni boshqarish rejangizga kompyuterlardan aniq umidlarni, shu jumladan kompyuterlardan faqat sinf faoliyati uchun foydalanish kerakligini kiriting.

O’quvchilarning yosh guruhiga qarab, kompyuterdan foydalanish tartiblarini ham ko’rib chiqing. O’quvchilarga sinfda kompyuterlarini ochishga ruxsat beriladimi yoki sizdan ruxsat kutish kerakmi?



Agar kompyuterlari ochiq bo'lsa va ularning e'tiborini o'ziga jalb qilsa, o'quvchilar umuman sizni tinglashda qiynalishadi. Kompyuterlarini 45 darajaga qo'ying (yarim yopiq) yoki hatto ularning e'tiboriga muhtoj bo'lganingizda to'liq yopiq bo'ling. Ushbu xatti-harakatning qanday ko'rinishini taqlid qiling: ular o'tirgan ekranini, barmoqlari hanuz klaviaturada harakat qilayotganini ko'rish uchun ularni stulga o'tirishlari kerakmi? (Yo'q.) Agar ular kompyuter hali ham 45 daraja chalg'itadigan narsa bo'lishini taxmin qilsalar, kompyuterlarini to'liq yopib qo'yishlari mumkinligini ayting.

Maktabning birinchi haftasida amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan bu taxminlar va tartib-qoidalar.

Akademik yili uchun aniq talablarni belgilang. Internetda Scratch dasturlaridan AP Java echimlariga qadar juda ko'p kod mavjud. O'quvchilaringiz bilan daraja: garchi professional dasturchilar Internetdan manba sifatida foydalanayotgan bo'lsalar-da, sizning o'quvchilaringiz akademik sharoitda bo'lib, ularda o'zlari o'rganish uchun o'z kodlarini yozishlari va o'z ishlarini bajarishlari kerak.

Garvardning CS50 kursi o'rta maktab sharoitlariga moslashtirilishi mumkin bo'lgan akademik ko'rsatmalarining ajoyib to'plamiga ega. Ushbu qo'llanmalarning bir nechta versiyasini o'quv rejangizga kiritishni o'ylab ko'ring:

Darsda aso'iy qoidalar bo'yicha ko'rsatmalar:

- Aqlli bo'ling: echimlarni Internetdan nusxa ko'chirmang.
- Muammolarni tengdoshlaringiz bilan muhokama qilishingiz mumkin.
- Yordam so'raganda, siz o'zingizning kodingizni ko'rsata olasiz, Internet-resurslardan foydalanishingiz va ularga murojaat qilishingiz va o'qituvchidan yordam so'rashingiz mumkin.
- Yordam berayotganda siz tengdoshingizga kodingizni ko'rsatolmaysiz. Siz tengdoshingizning kodini tanqid qilishingiz va tengdoshingizga echimini ko'rishga yordam beradigan ko'rsatma savollar berishingiz mumkin.

Birinchi kuni ko'rsatmalarni muhokama qiling va hattoki o'quvchilarga bu qoidalarni buzish deb baholashlari mumkin bo'lgan bir nechta taxminiy vaziyatlarni bering.

Juftlik dasturlashdan foydalaning. Qaysi biri ma'qulroq: o'quvchilar jimgina murakkab muammolarni hal qilishda qiynalayotganliklari sababli, yozuvning ovozidan tashqari, noqulay jim sinf? Yoki sinf o'quvchilari juftlik o'rtasida mavzudagi suhbat va bahs-munozaralar bilan gumburlaydimi?

Kompyuterlar o'quvchilarni ajratib qo'yishi mumkin, ammo agar siz juft dasturlashdan foydalansangiz va o'quvchilarga ba'zi laboratoriyalar va muammolarni juftlik bilan bajarishingiz kerak bo'lsa.

Birgalikda ishlash orqali o'quvchilar bir-birlarining dasturlash bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga va bir-birlarini vazifalarini bajarishga yordam berishadi. Ular darsdan ko'proq zavq olishadi va kompyuter fanidan kamroq qo'rqishadi.

Juftlik dasturlash - bu yangi kontseptsiyani o'rganish va muammoni alohida hal qilish o'rtasidagi ajoyib oraliq qadam. O'zingizning darsingizda buni odatiy holga keltiring, so'ngra o'quvchilarga o'zlarining ustaliklarini namoyish etish imkoniyatini bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta'lim asosida" Qonun. // O'zbekiston o'qituvchisi. 1997.31 avgust.
2. "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" // Xalq ta'limi. 1998. № 1.
3. Yo'ldoshev U., Bog'iev R., Zokirova F. Informatika o'qitish metodikasi ixtisoslashtirilgan maxsus, kasb-hunar ta'limi faoliyatlari uchun boshqarish. - T.: Talqin, 2005 yil.



XALQ XUNARMANDCHILIK SAN'ATINI ISH USULLARINI O'RGATISHDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Xamrayeva Norbibi
Konimex tumani 2-umumta'lim maktabning
Texnologiya fani o'qituvchisi
Qomatova Dildora
Navoiy shahar 17-umumta'lim maktabning
Texnologiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya.Yosh avlod qalbiga milliy, axloqiy, madaniy va ma'naviy tushunchalarni shakllantirish, o'zbek halqining milliy qadriyatlari asosida tarbiyalash, o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy va ma'naviy merosini o'rgatish. Milliy ananalarni, urf – odatlarni udumlarni, hayotga tadbiq etish, ma'naviyat va buyuk merosimiz ekanligi, milliy, tarixiy, madaniy merosimizni o'quvchi – yoshlarni qalbiga singdirish;

Kalit so'zlar. Milliy hunarmandchilik, naqqoshlik, hunar, ganchkorlik, yog'och uymakorlik, misgarlik, do'ppichilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, kulolchilik, kashtachilik, xalq amaliy, ustoz-shogird

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning bosqichlarida oldimizda turgan vazifalardan biri o'quvchilar bilimini sifat darajasini oshirish.

Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, milliy mentalitetimizga muvofiq kadrlar tayyorlashda “Ustoz-shogird” tamoyiliga amal qilib kelingan. Qadim-qadimdan kadrlar, asosan, shogird sifatida tayyorlangan. Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, milliy mentalitetimizga muvofiq kadrlar tayyorlashda “Ustoz-shogird” tamoyiliga amal qilib kelingan. Qadim-qadimdan kadrlar, asosan, shogird sifatida tayyorlangan. Yoshlarni biron kasb egasi, hunarli qilib tarbiyalashni yoshlikdan o'rgatib borishimiz zarur. Buning uchun bolalarning boshlang'ich sinfdan to'garak mashg'ulotlariga jalb etish imkoniyatlarini izlashimiz kerak bo'ladi zero “Yoshlikda olingan bilim, toshga uyilgan naqsh kabidir”, deb bejiz aytilmagan. Boshlang'ich sinf yoshdagi bolalar har narsaga qiziquvchanligini hisobga olib, mehnat darslarida va to'garaklarida naqqoshlik va kashtachilik hunarlariga qiziqtirish yo'larini izlash maqsadga muvofiqdir. Chunki naqqoshlik hunari ganchkorlik, yog'och uymakorlik, misgarlik, do'ppichilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, kulolchilik, kashtachilik kabi ko'pgina xalq amaliy ta'limi hunarlarining boshlang'ich qismidir. o'quvchilar mehnatini tashkil qilishni, ularni «ota kasb» va «ustoz-shogird» tizimida faoliyat ko'rsatishga o'rgatish. Yosh avlod qalbiga milliy, axloqiy, madaniy va ma'naviy tushunchalarni shakllantirish, o'zbek halqining milliy qadriyatlari asosida tarbiyalash, o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy va ma'naviy merosini o'rgatish. Milliy ananalarni, urf – odatlarni udumlarni, hayotga tadbiq etish, ma'naviyat va buyuk merosimiz ekanligi, milliy, tarixiy, madaniy merosimizni o'quvchi – yoshlarni qalbiga singdirish;

Odam hunarning mohiyatini, yaxshi va yomon sifatlarini bilgandagina hunarga oid bilimlarni mukammal egallashi, hunarmandlar ahlini qo'llab quvvatlashi mumkin.

Darhaqiqat Sharq mutafakkir allomalari, hunar va hunarmandlarga katta e'tibor berganlar. Jumladan Alisher Navoiyning fikricha, inson bo'lib dunyoga keldingmi? – biror kasbni egalla, hunar o'rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o'tmaysan – deyдилar. Alisher Navoiy o'z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli tuman hunar sohiblarining hammasiga zo'r hafsala, qunt va e'tibor bilan maslaxatlar berib, xusunga rag'bat ko'rsatib hamda ularga homiylik qilganlar. SHuningdek donishmandlarimiz o'git qilganlarki, vaqtida ilm hunarga muhabbat qo'ying, o'rgatilgan narsalarni yodingizda tuting, ilm hunar o'rganishga chin ixlos bilan kirishing, yoshligingizni bekorga o'tkazmang. Hattoki, ulug' shayxlarimizning o'zlari ham biror hunar egasi bo'lganlar masalan, Shayx Muhammad Sakko mashhur pichoqchi, Shayxul Mashoyix Abu Said Xarros etikdo'zlik qilgan. Shayx Hoja Bahvouddin Naqshbandiy ajoyib naqqosh bo'lganlar. Boshqalarni hunar o'rganishga da'vat etganlar. Hoja Bahvouddin Naqshbandiy aytadilar. «Dil bayoru dast bakor» ya'ni diling ollohda, qo'ling doim mehnatda bo'lsin.

Abu Rayhon Beruniy mehnat va hunar avloddan –avlodga meros bo'lib o'tishni sinchklab o'rgangan va hunarni yuqori baholagan. U «Hunarmandchilikda, mehnatda to'liq ustozlik san'atini egallab olishi kerak», - degan fikrni aytadi. Xalq pedagogikasida «Yoshlikda egallagan bilim hunar toshga o'yib yozilgan hikmatdur» - deb ta'kidlanadi.



Abu Rayhon Beruniy mehnat va hunar avloddan –avlodga meros bo‘lib o‘tishni sinchklab o‘rgangan va hunarni yuqori baholagan. U «Hunarmandchilikda, mehnatda to‘liq ustozlik san‘atini egallab olishi kerak», - degan fikrni aytadi. Odatda o‘sha davrda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o‘rgatilmay yakka tartibda berilgan.

1. Ota kasbini egallash, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida.
2. Shogird etish tanilgan usta qo‘lida yakka shogird bo‘lishi.
3. Ustaxonalarda yakka shogirdlik tartibida o‘rganilgan.

Yoshlarga xalq hunarmandchiligi kasblarini o‘rgatish orqali xalqning milliy ruhini saqlab qolish, an‘analarini tiklash va rivojlantirish, milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklarni avaylab asrash, xalq ustalarining boy kasbiy mahoratini avloddan-avlodga yetkazish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlashga muvaffaq bo‘linadi. O‘quvchilarni shu yo‘sinda kasb tanlashga yo‘naltirish bugungi kun talabidir. Milliy hunarmandchilik darslari jarayonida o‘quvchilarda quyidagi bilim va malakalarni hosil qilish imkoniyatlari mavjud.

Xalqimiz bolalarda mehnatsevarlik va mehnatga qiziqishni tarbiyalash, otalarimiz izidan borib turli kasb-hunar egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlash o‘zlarini muhim vazifa deb hisoblaganlar. O‘z farzandiga kasb-hunar o‘rgatgan ular ustazodalari (Usta darajasiga ko‘tarilgan farzand) bo‘lib yetishganlar. Tanlangan usta hunarmandlar uyida yakka shogirdlikka tushgan bola bir necha yil hunarga taaluqli bo‘lmagan yumushlarni ham bajarib yuraverganlar. Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk, malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi.

Milliy hunarmandchilik darslari jarayonida o‘quvchilarda quyidagi bilim va malakalarni hosil qilish imkoniyatlari mavjud:

Ushbu har bir mehnat yo‘nalishlari o‘zlariga xos xalq hunarmandchiligi, ishlab chiqarish va “Ota-kasb”, “Ustoz-shogird” asoslari hamda kasb tanlashga yo‘naltirish bilan uzviy bog‘lanib yakunlanishi maqsad qilingan.

Xalq hunarmandchiligida o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilimlar:

- Xalq hunarmandchiligi va ularning turlari to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar;
- Yog‘och o‘ymakorligi va ularning turlari to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar, yog‘och o‘ymakorligining o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy manzarali talablar:

-amaliy hunarmandchilik tarmoqlari (buyrachilik, savat to‘qish, zargarlik, temirchilik, kulolchilik, pichoqchilik va boshqa) ularning ish uslublari, o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quvchilarda shakllanish lozim bo‘lgan ko‘nikma, malakalar, mahxorat, tajriba, ijod;

-Xalq hunarmandchiligining bir necha turi bo‘yicha buyumlarni loyixalash, yasashni o‘zlashtirish mumkin. Bu uning mahorati darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Xalq hunarmandchiligi kasblari bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar berish va o‘zaro turdosh uchta kasb yo‘nalishi bo‘yicha kasbgacha tayyorgarlikni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Maktab ta‘limining hozirgi bosqichida o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, o‘sib kelayotgan avlodning ta‘lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.-102b.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.-488 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 9 fevraldagi “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2487-sonli Qarori. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 7-son, 62-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2019 y.,

5.Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A., Abdullayeva Q. Texnologiya: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2017.-240 b.

6.Ashurov N. O‘quvchilarni mehnat va kasbga yo‘naltirishda milliy qadriyatlarning o‘rni.- T.: «San‘at», 2006 y.



АХОЛИ ВА HUDUDLARNI TRANSPORT AVARIYALARI VA XALOKATLARIDAN MUHOFAZA QILISH

Egamberdiev Ilxom Ergashevich
Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi uslubchi- o'qituvchisi
Telefon raqami: +998993462785
Elektron pochta manzili: egamberdiyevilhom76@gmail.com

Annotatsiya: Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Aholi va hududlarni tabiiy hamda tenogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» gi va «Fuqaro Muhofazasi to'g'risida» gi, «Radiatsiya havfsizligi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonunlari va shu sohaga aloqasi bo'lgan VMning qarorlari asosida favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi masalalari bo'yicha tayyorlash dasturini tasdiqlagan.

Kalit so'zlar: Havo transportidagi avariya va xalokatlar, Temir yo'ldagi avariya va halokatlar, yo'l transport hodisalari, Temiryo'l transporti, Havo transporti, Suv transporti.

Respublikamizda yildan-yilga soni ortib borayotgan favqulodda vaziyatlar, ularni bartaraf etishga sarflanayotgan iqtisodiy harajatlar bunday hatti-harakatlarning samaradorligining pastligini ko'rsatmoqda va boshqacha yo'l tutish kerakligini taqozo etmoqda. Ya'ni, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni tahminlash, oldini olish kabi tadbirga ko'proq ahamiyatni jalb qilish zarur, chunki mahsulot ishlab chiqarishda yalpi mahsulot texnologik jarayonni olib borishda xatolikka yo'l qo'ymaslik tashqi muhit va inson hayoti uchun havfli moddalarni bir manzildan boshqa manzilga yetkazishda texnika xavfsizligini ta'minlash, yo'l qoidalarini buzmaslik, suv sathini o'zgarishini kuzatish xizmatini mas'uliyat bilan ishlash, fuqarolarning o'z vaqtida bajarishi – muammolarni yechishga imkon tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qaroriga asosan “Transport, energetika va kommunal tizimlardagi avariya va xalokatlar” texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar turlariga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 754-sonli qaroriga asosan aholi tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilaydi.

Transportdagi avariya va xalokatlar. 1) Havo transportidagi avariya va xalokatlar.

Ko'rinishi: o'zi bilan birga yo'lovchilarni, ekipaj a'zolarini halok bo'lishiga olib keladi, havo transportlarini portlashiga, yonishiga, buzilishiga, qolaversa yer yuzidagi binolarni va boshqa halq xo'jaligi ob'ektlarini buzilishiga olib kelib, turli darajadagi qutqaruv, qidiruv va tezkor yordam ishlarini olib borishni talab etadigan holat.

Oldini olish bo'yicha chora tadbirlar: Rejaviy-profilaktik ko'rik va ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida o'tkazilishi, xizmat muddati qoidalari talablariga amal qilish, boshqarish va aloqa tizimlarining ish sifatini oshirish, bundan tashqari xodimlarning bilimi va tajribasini oshirib borish.

Muhofaza tadbirlari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-qaroriga muvofiq “O'zbekiston havo yullari” milliy aviakompaniyasiga va unga qarashli “Avariya-qutqaruv va qidiruv xizmati” lariga “Aviatsiya texnikasidan avariya va xalokatlar foydalanish va parvozlar havfsizligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish” vazifasi yuklatiladi. Bundan tashqari soha xodimlarini muhofazalanish kafolatlari Qonun asosida ham amalga oshiriladi.

2) Temir yo'ldagi avariya va halokatlar. Ko'rinishi: Ushbu transport turida uchraydigan favqulodda vaziyatlar yong'inlar-portlashlarga, yo'nalishdagi vagonlarni izdan chiqishiga, axolini, yo'lovchilarni nobud bo'lishiga (yuk vagonlariga yuklangan davlat boyliklarini nobud bo'lishiga) qolaversa, sodir etilgan joylardagi aholi va xududlarning turli darajada zarar ko'rishiga, ayniqsa turli zaharli modda yuklatilgan vagonlar halokatga uchraganda hududlarni, aholini zaharlanishiga olib keluvchi holat

Oldini olish bo'yicha chora tadbirlar: Rejaviy-profilaktik ko'rik va texnik ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida o'tkazilishi, transport turini ishlatish muddati qoidalari talablariga amal qilish, boshqarish va aloqa tizimlarining ish sifatini oshirish, dispetcherlik xizmatini yaxshilash, bundan tashqari xodimlarning bilimi va tajribasini oshirib borish va h.k. “Fuqaro muhofazasi sohasida



rahbarlar va mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirish muassasalari, maxsus o'quv-uslubiyot markazlarida, kurslarda, shuningdek ish joyida amalga oshiriladi".

Muhofaza tadbirlari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-qaroriga muvofiq "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik kompaniyasiga "Temir yo'l transporti vositalaridan avariyasiz foydalanish, tashish chog'ida portlovchi, yong'in xavfi bo'lgan yuklar va KTZM havfsizligini ta'minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish" vazifalari yuklatiladi.

3) Avtotransport avariya va halokatlari (shu jumladan, yo'l transport hodisalari.) Ko'rinishi: transportdagi fuqarolarni halok bo'lishiga, portlash va yong'inlarni chiqishiga olib keladi. Agarda yuk tashuvchi avtotransportlarda avariya holati sodir etilganda, turli neft, portlovchi modda yoki zaharlanuvchi moddalarning avariya sodir etilgan joylarda tarqalishiga hamda ushbu xududdagi aholini nobud bo'lishiga, zaharlanishiga, bino va inshootlarni buzilishiga olib keladi.

Oldini olish bo'yicha chora tadbirlar: Rejaviy-profilaktik ko'rik va texnik ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida o'tkazilishi, texnik nosoz transport vositasidan foydalanmaslik, barcha turdagi yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, YPX xodimlarining, haydovchilarning, qolaversa aholining birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilim va malakalarini oshirish, yo'l tarmoqlarini me'yoriy talab darajasida saqlash, shaharlarda ko'p sathli yo'llardan, piyodalarning yer osti yo'laklaridan samarali foydalanish va h.k.

Muhofaza tadbirlari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-qaroriga muvofiq Davlat avtomobil nazorati organiga "Yo'l transport havfsizligini ta'minlash xizmatiga rahbarlik qilish" vazifasi yuklatiladi.

4) Metropoliten stansiyalarida bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar. Ko'rinishi: fuqarolarning nobud bo'lishiga, turli hil tan jarohatlari olishiga olib keladi, qolaversa portlash va yong'inlar sodir etilishi mumkin. Metropoliten stansiyalarni va vagonlarni buzilishiga olib keladi.

Oldini olish bo'yicha chora tadbirlar: Rejaviy-profilaktik ko'rik va texnik ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida o'tkazilishi, texnik nosoz transport vositasidan foydalanmaslik, barcha turdagi yo'l harakati qoidalariga rioya qilish, haydovchilarning, tarmoq xodimlarining ish yuzasidan bilim malakalarini oshirib borish, yo'l tarmoqlarini me'yoriy talab darajasida saqlash, va h.k. Metro ichidagi tele moslamalarda muhofazalanish to'g'risidagi qisqa videolavhalar ko'rsatib borish. Qonun moddalarini tarmoqqa aloqador qismlariga so'zsiz amal qilish.

Muhofaza tadbirlari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat qumitasi" ga, "Kon, ruda, kimyoviy, neft va gaz qazish hamda qayta ishlash sanoati va "Toshmetroqurilish" ob'ektlarida ishlarni olib borishning ahvoli va havfsizligi ustidan davlat nazoratiga raxbarlik qilish" ishlari yuklatiladi. Respublikamizda temiryo'l transporti, avtomobil transporti, havo transporti, suv transportlari mavjud. Har bir mintaqa havfsizlikni ta'minlash muammolari shunchaki mavhum xarakterda bo'lmaydi, hamda har qaysi mintaqada o'z hususiyatlari, havf soladigan manbalari va havfsizlikni saqlaydigan o'z omillari bo'ladi.

Ilmiy-texnik va maxsus adabiyotlardagi favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishiga aloqador ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yaqin vaqtlargacha dunyoning bir qator mamlakatlarida bu yo'nalishdagi ishlar asosan sodir bo'lgan texnogen turdagi favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini tugatishga zarar ko'rganlarga yordam berish, qutqaruv ishlarini tashkil qilishdan iborat bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 754-sonli qarori
4. <https://lex.uz/>



АНОЛИНИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА ХАРАКАТ ҚИЛИШГА ПСИХОЛОГИК ТАЙЙОРЛАШ

Jonibekov Shuhrat Baxtiyorovich
Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.
Telefon raqami: +998994745434
Elektron pochta manzili: shuxratbekjonibekov1987@gmail.com

Anotatsiya: insolarning organizmida turli noxush omillar (stressorlar) ta'siriga javoban yuzaga keluvchi fiziologik himoya reaksiyalari majmuidir. Ingliz tilidan tarjima qilinganda “stress” so'zi “bosim, zo'riqish, siqilish” demakdir.

Kalit so'zlar: Stress, Xavotir davri, Qarshilik ko'rsatish davri, Eustress, Distress, Tormozlovchi tur, Qo'zg'atuvchi tur, Distress belgilari

Xozirgi zamonaviy talqinda stress ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, to'rttasi asosiy hisoblanadi: stress - qo'shimcha yuklama keltiradigan hodisa, stress – aniq bir hodisaga nisbatan reaksiya (stressli kechinma), stress – qo'zg'atuvchi va unga bo'lgan reaksiya o'rtasidagi oraliq jarayon, stress – individning atrof muhit bilan to'qnashish jarayoni.

Insonning stress holatiga tushish va stressor ta'siriga moslashish jarayoni G.Sele fikricha 3 ta davrni bosib o'tadi:

1. Xavotir davri. Bu davrda organizm tahdid bilan uchrashuvga safarbar qilinadi. Kurashish yoki chetlab o'tishga sabab bo'ladigan biologik reaksiyalar sodir bo'ladi. Aniq bir fiziologik o'zgarishlar kuzatiladi: qonning quyulishi, qon bosimining ortishi, jigarning kattalashishi va h.k.

2. Qarshilik ko'rsatish davri. Agarda tahdidning ta'siri davom etayotgan va uni chetlab o'tishning iloji bo'lmasa, organizm unga qarshilik ko'rsatishga yoki unga moslashishga harakat qiladi. Fiziologik reaksiyalar me'yordan ortib ketadi. Shu sababli tana boshqa noxush omillarga nisbatan zaif bo'lib qoladi. Masalan, kasal odamning noxushliklarga kuchli munosabat bildirishi. Oxir-oqibat, tana stressga moslashadi va me'yoriy holatga qaytadi.

3. Agarda stress davom etayotgan bo'lsa-yu, inson moslasha oladigan holatda bo'lmasa, organizmning resurslari tugab qoladi. **Tugash davri,** charchashga moyillik, jismoniy muammolar kasalliklarga va hatto organizmning halok bo'lishiga olib keladi. Qisqa muddatli noxush omillar (mushaklarning zo'riqish energiyasi ortishi, og'riq belgilariga yo'l qo'ymaslik, ovqat hazm qilishning to'xtashi, qon bosimining ko'tarilishi)ga qarshilik ko'rsatish imkonini beruvchi reaksiyalar, ta'sir uzoq davom etganda zararli bo'lib qoladi.

Stress aniq bir kritik darajaga yetmaguncha organizmga ijobiy ta'sir qiladi (organizmni safarbar qiladi va yuzaga kelgan to'siqlarni oshib o'tishga undaydi). Bu ko'rsatkichdan oshib o'tilgandan so'ng organizmda gipersafarbarlik deb ataluvchi jarayon rivojlanadi, u o'zini-o'zi boshqarish va faoliyat natijalarining pasayishini keltirib chiqaradi. Shu sababli kritik ko'rsatkichdan kuchli stress holatini ayrim vaqtlarda distress deb ham ataladi.

Eustress – ikki ma'noga ega tushuncha – “ijobiy hissiyotlar keltirib chiqargan stress” va “organizmni safarbar etuvchi kuchsiz stress” demakdir.

Distress – organizmning unga o'ta noxush, “chegaradan chiqib ketgan” ta'sir ko'rsatilgan vaqtdagi patologik holati.

Distressning ikki turini ajratish mumkin: tormozlovchi va qo'zg'atuvchi.

Tormozlovchi tur – harakatlarning sekinlashuvi va epsizligi bilan tavsiflanadi. Inson avvalgi ephilligi bilan harakat qila olmaydi. Javob reaksiyalarining tezligi pasayadi. Aqliy jarayon sustlashadi, tinch holatda ushbu insonga xos bo'lmagan xotira yomonlashuvi, hardamxayollik va boshqa salbiy belgilar namoyon bo'ladi.

Qo'zg'atuvchi tur – giperfaollik, ko'p gapirish, qo'l va ovoznig titrashi bilan namoyon bo'ladi. Masalan, operatorlar ko'p sonli, ushbu holat talab qilmagan harakatlarni amalga oshiradilar. Ular uskunalar holatini tekshiradilar, kiyimlarini to'g'rilaydilar, qo'llarini ishqalaydilar, atrofdagilar bilan muloqatda bo'lganda jirtaki, qo'pol, tajang, arazchi bo'lib qoladilar.

Distress belgilari: bosh og'rig'i, xolsizlanish, biror bir ishni bajarishni xohlamaslik, vaziyatning yaxshi tomonga o'zgarishiga ishonchning yo'qolishi, his-xayajonli holat, tavakkal qilish istagi, shok holati bilan bog'liq xotiraning qisman yo'qolishi, stress holatiga olib kelgan



vaziyatni tahlil qilib o‘ylab ko‘rishni xohlamaslik, o‘zgaruvchan kayfiyat, charchoq, lanjlik.

Stress yillar davomida saqlanib qolishi va insonning ahvoliga, hayotdan qoniqishiga va mehnat faoliyati samaradorligiga negativ ta’sir ko‘rsatishi mumkin. To‘planib qolgan zo‘riqish, imkoniyat darajasidan chiqib ketar darajada ko‘p ishlash keyinga surilgan oqibatlarga olib keladi. Ekstremal soha vakillari uchun uzoq davom etgan stressogen vaziyat yoki o‘tkir stressning ehtimoliy oqibati – kasbiy yaroqsizlik sindromining rivojlanishi, travmadan keyingi stress buzilishlari bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni (20.08.1999 y.).
2. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni (26.05.2000 y.).
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to‘g‘risida”gi qarori (754-sonli, 2019 yil 9 sentyabr.).



THE CHOICE AND CREATION OF THE ENVIRONMENTALLY FRIENDLY HARDENING ENVIRONMENT MADE OF THE COMPONENTS MANUFACTURED IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN

D.M. Ergashev, senior teacher. Andijan machine building institute, Andijan.
L.X. Mekhmonaliyev, master. Andijan machine building institute, Andijan.
lazizbek_mexmonaliyev@gmail.com
+998934465677

Abstract: Thermocyclic processing (TCP) is based on the idea of repeated heating- cooling of steel without exposure at a continuous temperature of heating. At the same time, values of temperatures at the upper and lower levels and the speed of heating of cooling can be constants. In this work the possibility of carrying out TCP not heat resistant tool steel using lubricoolant on the basis of water-soluble polymer of the medicine “Uliflok” is considered.

Key words: water-soluble polymers, hardening liquid, cooling speed, refrigerating capacity.

Nowadays works on research of substitutes of the mineral oils used as hardening environments were carried out. In resent times, it is developed more than ten times[1]. Many hardening environments are solutions of different substances in water.

Water-soluble polymers are most widely used. It is possible to classify all hardening environments on the basis of the water-soluble polymers produced in the CIS countries as follows [2]. On a basis:

- Polyacrylamides (PAA and ZSP-1);
- Incomplete iron salt of polyacrylic acid (PK-2);
- Modified cellulose (VP-3);
- Sodium salt of a carboxymethyl cellulose (Na-KMTs);
- the hydroxyethylated alkylphenol (TOSOL);
- copolymer of a chloroprene with methyl methacrylate and methacrylic acid (“Nairit”).

The majority of these received industrial application. In particular the PAA (ZSP-1) environment yields good results at scraper tempering from induction heating.

Quite satisfactory results at volume tempering of thick-walled products are yielded by tempering in the environment on the basis of Na-KMTs [3].

Lack of water solution of polyacrylamide (PAA) is the big instability of refrigerating capacity at temperature change. For the purpose of improvement of the cooling properties when tempering by immersion enter additives of mineral salts into PAA solutions: chloride sodium, soda, chloride ammonium. At the same time the maintenance of PAA 0.2-0.5% are normal.

Solutions on a basis sodium- carboxymethyl cellulose (Na-KMTs) are widely used at the Russian engineering plants (the Nev plant software, Izhora Plant, NPO “Atom mash”, etc.). Speed of cooling can be regulated concentration of Na-KMTs polymer and mineral additives. Use 2% of Na-KMTs from 2% drills. Cooling of large details in the environment of 1.5% of Na-KMTs without adding of chloride sodium takes place more slowly, than in oil and solution has low firmness at operation. Therefore add 15% of NaCl.

From all considered structures the most universal solution on the basis of copolymer of methacrylic acid with acrylonitrile in the ratio of monomeric links (up to-10) – (50-50) after oil and concentration of copolymer of 0.1-10.0% (UZSP-1) is considered. This solution underwent long-term use in software “Tashselmash” when tempering twisted elements of spindles of mechanical cotton pickers from steel 65G. It allowed to exclude use of mineral oil and to considerably improve an ecological situation in workshop. There were sufficient introductions to water solution only of 0.7% of a concentrate of UZSP-1 that the speed of cooling decreased to the values providing lack of cracks when tempering, extremely limited information is available about an opportunity to use as the component of the hardening environment, copolymer of acrylic acid and acrylamides produced under the “Uniflok” trademark [4]. At the same time need of development of the program of the standardized complex for certification of hardening environments – oil substitutes is emphasized



References.

1. Ejoy V.M. The choice of environmentally friendly polymeric water-soluble hardening environments instead of mineral oils. – МҮОМАС, No. 4, Page 8-10, 1991.
2. Goryushin V.V. About application of synthetic hardening environments in the industry – МЕАТН, No. 4, Page 10-14, 1991.
3. Okhrimenko G. V., etc. Experience of tempering heat resistant steel in the polymeric environment on the basis of Na-KMTs. – МЕАТН, No. 4, Page 21-24, 1991.
4. Lyuta V. Hardening environments. The reference book – Chelyabinsk, Metallurgy, 190 pages, 1991.



OQUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA TEHNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI VA O‘RNI.

*Xo‘jayeva Malohat Matqurbonovna
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
7-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
tehnolgiya fani II- toifali o‘qituvchisi.
Telefon:+998(91) 919 13 71
E-mail:mxujayeva@inbox.ru*

Anatatsiya: Maqolada “Oquvchilarni kasb hunarga yo‘naltrishda texnologya fanining axamyati va o‘rni haqida” malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, muaddis, kompozitsiya, gazlama, plastilin, yumshoq oyinchoq, pazandachilik, ishlab chiqarish

Har bir mamlakatning kelajagi bo‘lgan ta‘lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha turli qonun va farmonlar ishlab chiqilgan. Shu jumladan mamlakatimizda qabul qilingan ”Ta‘lim to‘g‘risida”gi ”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarga muvofiq, umumiy o‘rta ta‘lim fanlarini o‘qitishning uzliksizligini va izchilligini ta‘minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o‘rta ta‘lim davlat ta‘lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joyiy etish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda.

Bu ishlardan ko‘zlangan maqsad mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020yil ”1-oktyabr –o‘qituvchi va murabbiylar kuni ”munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqida ta‘kidlaganlaridek; ” Maktab muammosiga birinchi masala deb qarashimiz lozim. Maktab faqatgina ta‘lim beradigan maskan emas, balki barchamiz uchun yuksak ma‘naviyat beshigiga , farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasb-hunarga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur.”

Bugungi kunda ta‘limda olib borilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar o‘quvchilarda nafaqat ta‘limiy , balki kasb tanlashga yo‘llash, hayotiy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgandir. Kasb tanlashga yo‘llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umummaktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga texnologiya fani davomida o‘quvchilar kasblar olami, kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar, kasbiy salomatlik to‘g‘risida tanishib boradilar, nafaqat tanishib boradilar, balki, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lib boradilar.

Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o‘z asarlarida, she‘r va g‘azallarida halol mehnatni, kasb- hunar egallashning zarurligini va muaddasligini, ta‘kidlab, ulug‘lab o‘tganlar. Ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiy o‘z g‘azallarida yoshlarni ilm-hunar egallashga chaqiradi;

Ilm kasbini qildi to‘ joni bor,

Hunar o‘rgandi ongaki imkoni bor.

Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning fikricha bolaga yoshligidan biror bir kasb-hunarni o‘rgatish lozim. Uning hunarli bo‘lishga qaratilgan nasihatlar hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Uning ta‘kidlashicha ”Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o‘rgatmoq muhim ma‘suliyatli ishdir. Hunar o‘rganish birla yoshlar har qanday nojo‘ya hatti-harakatlardan holi bo‘ladilar.” Markaziy osiyolik hamda o‘zbek marifatparvar shoirlar ham kasb-hunar egallashning ahamiyati to‘g‘risida o‘z asarlarida qimmatli maslahatlarini qoldirganlar, bu meros hozirgi kunda ham yoshlarni kasb-hunarga yonaltirishda muhim ahmiyatga ega.

Kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri hisoblanadi. Kasb tanlashga yollash ishi butun texnologiya fani davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari o‘zining turli bosqichlarida o‘zgarib turadi. 1-4-sinflarda o‘quvchilar qog‘oz ishlab chiqarishning texnik bosqichlari, uning yaratilish jarayonlari to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘ladilar, qog‘oz bilan ishlash usullari, turlari, qog‘ozni buklash, geometrik shakllar, qirqish, yelimlash, turli hajmdagi o‘yinchoqlar tayyorlash, manzara kompozitsiyasini yaratish,tabriknomalar tayyorlash malakasini egallaydilar. Gazlama bilan ishlash, chok turlari, yumshoq o‘yinchoqlar tikish , to‘qish va uning turlari, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha kashtachilikning eng sodda elementlarini



tikish, loy va plastilindan turli o'yinchoqlar haykallar yasash ko'nimasiga ega bo'ladilar. Tabiiy materiyalar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning tasavvuri ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, turli chiqindi va badiiy materiyalardan o'yinchoqlar hayvon va parranda qushlarni yasash, uy-ro'zg'or buyumlarni, turli qiziqarli o'yinchoqlarni yasash ko'nikmasini shakllantirib boradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy, badiiy sa'natning sodda elementlari asosida applikasiya, mozaika usullaridan foydalanib, manzara, buyumlardan kompozitsiya qurish yasash malakasini egallash bilan birga o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini texnik modellashtirish orqali kasbga yo'llashning boshlang'ich ko'rinishi namoyon bolib boradi.

O'quvchilar 5-7-sinflarda o'g'il bolalar yog'ochga ishlov berish texnologiyasi, metallarga ishlov berish texnologiyasi, elektrotehnika ishlari, uy-ro'zg'or buyumlarni ta'mirlash ishlari, qiz bolalar esa gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari bo'limlari, buyumlarni ta'mirlash bo'limlari yuzasidan bilim, ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga, bu bo'lim yonalishlari bo'yicha turli kasb-hunar turlari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar.

8-9-sinflarda o'quvchilar ishlab chiqarish asoslari bo'limlari, xalq hunarmahdchiligi texnologiyalari bo'limi, kasbga yo'naltirish asoslari bo'limlarini o'rganish bilan birga kasb tanlashdagi xatolar, qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari, kasb tanlashdagi shaxsiy qiziqishlari va moyilliklari, qobiliyatlarini e'tiborga olish, kasb tanlashda ohg'ililik va mustaqillik, o'z-o'zini tarbiyalash, kasb tanlashning mohiyati, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish, o'zi xohlagan kasbga yaroqli ekanligini aniqlash, o'z ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullari, kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja ishlab chiqish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bolib boradilar.

Yoshlarning kasb-hunar egallashlariga ko'maklashish, ularni butun sanoat, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, xo'jalik va madaniy qurulish ishlariga jalb qilish har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashning muhim sharti ekanligini unutmasligimiz zarur. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda mehnatga muhabbat, jismoniy mehnat kishilariga hurmat va shaxsning boshqa odob, ahloq sifatleri shakllanishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasbga yo'llash" N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov Toshkent-2014
2. "Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov, Sh.T.Ergashev, O'.O.Tohirov, Z.S.Shamsiyeva, F.Nasrullayeva, U.Talipov Toshkent-2017



ОСНОВНЫЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ СОВМЕСТИМОСТИ

Аликулова Дилноза Дустқобил кизи
Студентка Ташкентского Университета
Информационных Технологий
Телефон: +998 (90) 017 21 02
alikulov_u@mail.ru
Пулатов Шерзод Ўткирович
Доцент Ташкентского Университета
Информационных Технологий
Телефон: +998 (95) 142 54 74
shpulatov@mail.ru

Аннотация: Данная статья посвящена на то что в рамках одной статьи невозможно обсудить все вопросы проектирования изделий, мы попытаемся описать наиболее часто встречающиеся проблемы, которые были выявлены в сотнях устройств. К этим относятся неправильно разработанные печатные платы, использование кабелей, экранирование и фильтрация.

Ключевые слова: Электромагнитная совместимость, электромагнитных помех, физические аспекты.

Среди первых трех наиболее часто встречающихся причин от казлов находятся излучаемые помехи, восприимчивость к шумам и электростатический разряд. К другим типам отказов относятся кондуктивное излучение, быстро протекающие переходные процессы, порождающие звон и «иголки», восприимчивость к кондуктивным помехам и всплески тока. Большинство из этих проблем обусловлено плохо продуманными схемами, в результате чего и возникают три основных отказа. Проектирование печатных плат наиболее важным фактором, обеспечивающим электромагнитную совместимость и защиту от электромагнитных помех (ЭМП) является правильное проектирование печатных плат. Необходимо заметить, что не во всех источниках информации на эту тему, к которым относятся книги, журнальные статьи или указания по применению от производителей, корректно освещаются вопросы проектирования печатных плат с целью обеспечить ЭМС. В первую очередь, это замечание относится к источникам информации старше 10 лет. Кроме того, многие т. н. «эмпирические правила» основаны на практике разработки специфических приложений и уже неприменимы к разработке современных или будущих систем.

Платы для цифровых устройств необходимо проектировать, руководствуясь законами физики с учетом того, что проводники с высокочастотными сигналами, синхросигналами и схемы разводки питания (СРП) должны создаваться как линии передачи. Это значит, что по печатным платам сигналы или энергия передаются в видеэлектромагнитных волн. Отдельный случай представляют собой схемы разводки питания, поскольку в них должна запасаться энергия для переходных процессов. Характеристический импеданс СРП должен быть очень мал — как правило, 0,1–1 Ом, тогда как у сигнальных проводников этот показатель составляет 50–100 Ом. Часто причиной возникновения отказа является недостаточно хорошо продуманный возвратный тракт. Разрывы или щели в обратном тракте являются главными причинами отказов, обусловленных излучаемыми помехами, восприимчивостью к шумам и электростатическими разрядами. Электрические поля на платах ПК возникают между двумя металлическими поверхностями, например микрополосковой линии в слое обратного сигнала. В поврежденной обратной цепи электрическое поле «замыкается» на ближайший металлический участок, приводя к изменению расчетных параметров обратного тракта. Утечка электромагнитного поля через диэлектрик приводит к появлению синфазных токов на всей поверхности платы, а также к возникновению перекрестных помех из-за взаимного влияния синхросигналов или других быстро распространяющихся сигналов на десятки других проводников схемы в том же диэлектрическом слое. На рисунке 1 показано, как распространяется волна в диэлектрике по сигнальному проводнику и обратно, а также ток смещения. Скорость волнового фронта сигнала определяется диэлектрической проницаемостью материала. В воздушной среде сигналы про-



ходят около 30 см за 1 нс. В типовом стеклотекстолите эта скорость в два раза меньше. Подробно описаны физические аспекты распространения сигналов по печатным платам ПК. Следует учитывать взаимодействие между соседними слоями питания и обратными трактами питания, а также между соседними слоями сигнальных и обратных сигнальных трактов. В схеме разводки питания требуются сглаживающие и развязывающие конденсаторы для накопления энергии. Сглаживающие конденсаторы емкостью 4,7–10 мкФ (тип.), как правило, устанавливаются вблизи входного разъема питания, а развязывающие конденсаторы емкостью 1–10 мкФ (тип.) — рядом с самыми шумящими коммутационными устройствами. В идеальном случае все развязывающие конденсаторы должны устанавливаться над (или рядом) сквозными переходными отверстиями. Для каждого конденсатора применяется несколько таких отверстий, чтобы уменьшить величину последовательной индуктивности у сигнальных слоев и слоев питания всегда имеется тракт для вращения тока в источник. Из рисунка 1 видно, как электромагнитное поле сосредотачивается в диэлектрике по обеим сторонам слоя обратного тракта сигнала. Собственно диэлектрик не показан для наглядности представления.




Рис. 1. Распространение электромагнитной волны по микрополосковой линии с опорной плоскостью




Рис. 2. Сигнальный проводник, проходящий через слой с обратным сигналом




Рис. 3. Сигнал распространяется по проводнику через две опорные плоскости.

Если у них одинаковый потенциал, рядом с отверстиями для сигналов достаточно расположить массив переходных отверстий. Однако если у этих плоскостей разные потенциалы,

алы, очень близко к отверстиям для сигналов устанавливается массив конденсаторов. Если тракт обратного сигнала недостаточно хорошо проработан, возникает утечка электромагнитного поля вокруг диэлектрика, появляются наводки и другие сигнальные отверстия или помехи на краях платы




Рис. 4. Из-за неправильного расположения слоев платы возникают большие электромагнитные помехи




Рис. 5. Пример корректного расположения слоев платы, благодаря которому минимизируются ЭМП. Каждый сигнальный слой соседствует с обратным слоем, а слои питания и обратного тока питания расположены рядом друг с другом.

С другой стороны, из рисунка 3 видно, что, если сигнал проходит через две опорные плоскости, анализ такого случая намного усложняется. Если у двух плоскостей одинаковый потенциал (например, они являются опорными), рядом с сигнальным отверстием можно расположить соединительные переходные отверстия. В результате появится хорошо определенный тракт обратного сигнала. Если у двух плоскостей разные потенциалы, конденсаторный массив устанавливается рядом с сигнальным переходным отверстием. В недостаточно хорошо продуманном тракте с обратным сигналом электромагнитная волна распространяется через диэлектрик, вызывая перекрестную помеху на других сигнальных отверстиях, помехи на краях платы, а также утечку энергии. Например, рассмотрим на рисунке 4 случай неправильного, но очень распространенного проектирования многослойной платы. Из рисунка видно, что слои питания и обратного тока питания отделены друг от друга. Любые переходные процессы в схеме распределения питания являются источниками перекрестной помехи для двух сигнальных слоев, которые находятся между этими шинами питания. Аналогично, поскольку несколько сигнальных слоев соседствует с плоскостью обратного тока питания, распространяющаяся по ней волна воздействует на ближайшие металлические проводники, соединенные с источником питания. В таких случаях помехи, создаваемые тактовыми последовательностями, распространяются по всей плате. Пример корректного расположения слоев платы показан на рисунке 5. В этом случае один сигнальный слой отсутствует, а слои питания и обратного тока питания расположены рядом друг с другом. При этом каждый сигнальный слой соседствует с сигнальным или силовым слоем обратного тока. Два слоя с обратными токами соединяются переходными отверстиями, что обеспечивает наименьший импеданс обратного тракта. ЭМП можно значительно уменьшить, если использовать этот же принцип при проектировании печатных плат. Во многих случаях достаточно поменять порядок расположения плоскостей в многослойных платах, чтобы уменьшить помехи. Заметим, что при прохождении сигналов



между верхним и нижним слоями следует на расстоянии 1–2 мм от каждого переходного отверстия с сигналом расположить массив переходных отверстий между слоями обратного тока и массив конденсаторов между шинами питания. Такие меры позволяют минимизировать обратный тракт. Рекомендуется также располагать все разъемы питания и портов вывода вдоль края печатной платы, чтобы уменьшить перепад напряжения высокой частоты между разъемами и свести к минимуму, таким образом, помехи от кабеля. Кроме того, рекомендуется отделять друг от друга цифровые, аналоговые и РЧ-цепи, чтобы уменьшить перекрестные помехи. Разумеется, тракты для высокоскоростных сигналов, в т. ч. синхросигналов, должны иметь минимальную длину. В случае с высокоскоростными сигналами нельзя размещать проводники сравнительно большой длины вдоль краев печатной платы или рядом с разъемами. Щели в слое с обратным током На рисунке 6 схематично показан разрыв в обратном токовом тракте. Ток проводимости вынужден течь вокруг щели. В противном случае он находит путь с наименьшим импедансом, чтобы вернуться к своему источнику. Электромагнитное поле этого тока распространяется по всей печатной плате. Разница между уровнем помех в обратных трактах со щелью и без нее видна из рисунка 7. Красным цветом показаны гармонические токи в диапазоне 10–15 дБ и выше в случае с проводником со щелью. Следует помнить, что главной причиной отказов из-за воздействия излучаемых помех являются сигнальные тракты и проводники с токами, протекающими к источнику питания.

Экранирование при использовании экранированных корпусов требуется решить две задачи. Первая из них заключается в обеспечении плотного, без щелей, соединения всех частей корпуса друг с другом, а вторая в том, чтобы силовые кабели и кабели ввода/вывода проходили




Рис. 6. Демонстрационная тестовая плата с линиями передачи сигнала с согласованным импедансом 50 Ом. У одной из этих линий – щель в обратном тракте.

Список используемых источников:

1. Чернявский Г.М., Бартенев В.А. Орбиты спутников связи. — М.: Связь, 1978.
2. Сомов А.М., Корнев С.Ф. Спутниковые системы связи. — М.: Горячая линия — Телеком, 2012.
3. Ибраимов Р.Р, Давронбеков Д.А., Пулатов Ш.У., Хатамов А.П. Спутниковые системы связи и приложения --- М: Учебное пособие, 2018



ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИНИ ТУЗЛАР ТАЪСИРИДАГИ ЎРОВЧИ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ СОРБЦИОН ХУСУСИЯТИНИ ЯХШИЛАШ.

Қодиров Фиёзжон Мирзажонович
Фаргона политехника институти ассистенти
Телефон: +998(91) 112 10 53
biq-qodirov_g@mail.ru

Аннотация: Агрессив муҳит таъсири остида бўлган қурилиш материаллардан қилинган ўровчи конструкцияларини узокга чидамлилиги ва коррозияга бордошлиги ўрганилган.

Калит сўзлар: узокга чидамлилилик, агрессив муҳит, қоричма, қўшимча, ҳарорат-намлик, сорбцион намлик

Кимё саноатининг кўпгина ишлаб чиқариш биноларини меъёрадаги ёки қуруқ ҳарорат намлик режимли бинолар қаторига киритиш мумкин. Буни илмий текшириш ва лойиҳалаш институтлари томонидан калий комбинатлари ҳаво муҳитининг ҳарорат-намлик ҳолатни бўйича ўтказилган илмий изланишлари ҳам тасдиқлайди.

Лекин кўпгина ҳолатларда бундай биноларнинг деворлари намланган излар ва тузлар билан қопланган. Бу ўз навбатида ўровчи конструкцияларнинг намлик ҳолати яхши эмаслигидан дарак беради.

Хом ғиштдан қилинган деворлардан олинган намуналар таҳлили шуни кўрсатдики, баъзи биноларда ўртача намлик нам тўпланиш даврининг охиригача келиб меъёрадан 5% га, маҳаллий максимал намлик 7% га кўп бўлган. Йилнинг иссиқ даврида деворлар қуришга улгурмаган.

Конструкциялардаги юқори намлик тузлар таъсири остида айниқса ташқи юза томондан девор материални емирилишига олиб келади.

Бунинг асосий сабаби ташқи юза тез ўзгариб турадиган ҳарорат остида, ҳамда ташқи ҳавода тўпланган туз чанглари ички ҳаво чанглиридан кўпроқ бўлади.

Ўровчи конструкцияларнинг намланиш жараёнига ва қалинлиги бўйича намликни тақсимланишига тузланиш даражаси, деворнинг конструктив ечими ва бошқа ҳолатлар таъсир этади.

Агар деворнинг конструктив ечими тўғри танланган бўлса, у ҳолда деворнинг намлик ҳолатига асосий таъсир бу ёпма қалинлигидаги туз эритмалари ҳисобланади. Чунки девор материали ғовақларига ўрнашиб олган туз эритмалари физик-химик ҳолатлари билан сувдан фарқ қилади.

Девор қалинлигида хлор тузларини бўлиши материални нам тортувчанлигини (гигроscopicность) оширади (ҳаводаги намликни ютилиш хусусияти).

Қурилиш материалларини намликни ютиш (сорбция) хусусияти намликни ғовақлар ва капиллярлар юзаси билан боғланиш ҳарактерига қараб аниқланилади.

Тузлар таъсири остидаги сорбцион намлик сони нафақат атроф-муҳитни ҳарорат-намлик ҳолати ва намланаётган материални табиатига, шунингдек тузларнинг физик-химик хусусиятига ва материал ғовақларидаги сонига боғлиқ бўлади.

Тузланган материални майда ғовақларида капилляр конденсация (қуюқланиш) концентрациясига боғлиқ бўлган ҳаво нисбий намлигига қараб бошланади.

Тузланган қурилиш материалларини сорбцион хусусиятини ошиши таъсир этувчи тузларнинг нам тортувчанлигига тўғридан тўғри мутаносиб бўлади.

Қурилиш материалларининг таркибида тузларнинг бўлиши сорбцион хоссасига таъсир қилиш билан бирга, унинг узокга чидамлилигини ҳам камайтиради. Ўровчи тузилмаларнинг тузлар шаклидаги агрессияда эксплуатация қилиш жараёнини, тузлар сонини камайтириш ҳисобига яхшилаш мумкин. Бунинг учун тузилмалар юзасига таркибида тузлар бўлган суюқ эритма ва конденсат, ҳамда тузилма материалининг сорбцион хоссасини камайтириш керак. Бу вазифани бажариш ўровчи тузилмани асосини ташкил қилувчи иситгич қатламини ҳажмий гидрофобизация қилиш орқали эришиш мумкин. Енгил бетоннинг иситгич қатлами таркибига гирофобик қўшимча қилиб полифенилэтоксисилоксан (ФЭС) ва кирсталлик натрий этилсиликонати (ЭСНК) олинди. Девор тузилмаларига натрий хлоридли тузлар таъсирида сорбцион хоссасини ўрганиш куйидаги қурилиш материалларида



ўтказилди оғир бетон, керамзитбетон, ФЭС қўшимчали керамзитбетон, ЗСНК қўшимчали керамзитбетон. Сорбцион ҳоссани ўрганиш қобирғалар баландлиги 3 см бўлган кубикларда ўтказилди. Кубиклар тайёрлашда, тўлдиргичлар фракцияси диаметри кичикроқ қилиб олинди. Керамзитбетон таркибига қўшимчалар цемент оғирлигига нисбатан ФЭС-2 (ЭСНК-01) солинди. Тайёрланган намуналар 3 ойдан сўнг -105°C ҳароратда ўз оғирлиги қолгунча қурилтилди. Уларга натрий хлоридни шимдириш тўйилган эритмадан тўйинганга нисбатан 0,5 ва 0,1 эритмаларидан ва эритмасиз бўлди. Олинган натижалар шуни кўрсатадики қурилиш материалларида натрий хлорид сорбцион намликни кўпайтиради. Қурилиш материаллари ғовақларида қанча туз кўп бўлса, сорбция шунча кўп бўлади. Таркибида ЭСНК ва ФЭС қўшимчалари бўлган материалларида қандай шўрланишдан қатъий назар сорбцион намлик камаяди. Қўшимчалар қўшилиши натижасида сорбцион намликни камайиши ўровчи конструкцияларнинг теплотехник хусуситларини яхшилаб, чидамлилигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ильинский В.М., Строительная физика М.1974. йил
2. Фокин К.Ф. Строительная теплотехника ограждающих частой зданий. М., 1974. йил
3. Тешабоев Р.Д., Набиев М., Гончарова Н.И. Фуқаро бинолари меъиорчилиги. Фарғона 2002



ЯНГИ ТАРКИБЛИ ТРИКОТАЖ ТЎҚИМАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚОТИ

Турахужаева Нилуфар Назиржановна
Андижон машинасозлик институти ассистенти
Телефон: +998 (97) 332 45 01
e-mail: Turaxujayevan1985@mail.ru

Трикотаж маҳсулотларига бўлган асосий талаблар бевосита тўқиманинг технологик кўрсаткичларига боғлиқ бўлади.

Маълумки, трикотаж тўқимаси таркибига бирор бир янги турдаги ип ёки ҳалқа элементлари киритилса, тўқиманинг тузилиши ва ўлчамлари [1] ўзгаради. Биз тадқиқот қилаётган тўқималарнинг таркибида пахта ипи билан биргаликда йиғирилган ипак ипидан фойдаланилганлиги учун, бу тўқималарнинг технологик кўрсаткичлари амалий ва назарий усулда ҳисобланди.

Трикотаж тўқимасининг энг асосий тавсифларидан бири - хом ашё сарфининг камлигидадир. Бунда юза зичлиги, қалинлиги ва ҳажмий зичлиги эътиборга олинади. Анъанавий ҳолда тўқимада хом ашё сарфининг энг муҳим омили - трикотаж тўқимаси юза зичлиги ҳисобланади. Трикотаж тўқималарининг юза зичлик кўрсаткичи асосий технологик кўрсаткичлардан биридир. Юза зичлик тўқима таркибида фойдаланилаётган ипнинг тури, чизикли зичлиги ва шунингдек ипларнинг фоиз миқдорларини ўзгаришига боғлиқ бўлади.

Кўпгина илмий изланиш натижаларининг тахлилидан маълумки [2], трикотаж юза зичлигини маълум миқдорда камайиб бориши, хом ашё сарфининг камайишига олиб келиши, трикотажнинг пишиқлик хусусиятига таъсир этмаган. Чунки, трикотаж матоларининг пишиқлигини абсолют катталиги юқори бўлади.

Ёпқичли тукли тўқиманинг технологик кўрсаткичларига йиғирилган ипак ипининг таъсирини ўрганиш мақсадида янги таркибли 12 та вариантдаги (4 та гуруҳдаги) тўқима намуналарининг технологик кўрсаткичлари таҳлил қилинди (1-жадвал).

1-жадвал

Асос ва тукли ипларнинг чизикли зичликлари ўзгартириб олинган пахта ипак ёпқич тукли трикотаж тўқимасининг технологик кўрсаткичлари

Гуруҳлар	Вариантлар	Ипнинг чизикли зичлиги, текс				Ипларнинг тўқимадаги миқдори, %				Ҳалқа узунлиги, А (mm)	Ҳалқа катори боғлашнинг, В (mm)	Тўқима зичлиги, халқалар соки		Ҳалқа ипи узунлиги, mm		Матонинг юза зичлиги, М, g/m ²	Қалинлик, Т, mm	Матонинг ҳажмий зичлиги, 6, mg/cm ³
		Пахта ипи		Йиғирилган ипак ипи		Пахта ипи		Йиғирилган ипак ипи				Гораксонга бўйича зичлик, P ₁	Вертикал бўйича зичлик, P ₂	Асос ип L ₁	Тукли ип L ₂			
		Асос ипи	Тукли ип	Асос ипи	Тукли ип	Асос ипи	Тукли ип	Асос ипи	Тукли ип									
I	1	19,5x1	19,5x3			11,9	88,1			1,2	0,78	41	64	5,37	12,25	455,3	1,35	337,2
	2	19,5x2	19,5x2			29,2	70,8			1,4	1,06	35	47	5,39	12,8	449,6	1,3	345,8
	3	19,5x3	19,5x1			54,3	45,7			1	0,73	50	68	5,37	12,7	415	1,2	345,8
II	1	19,5x3		16,7x1	61,6			38,4	1,4	0,9	35	37	5,45	12,38	393,8	1,1	357,2	
	2	19,5x2		16,7x2	33,4			66,6	1,6	1	31	50	5,25	12,55	382,6	1,05	364,4	
	3	19,5x1		16,7x3	14			86	1,2	0,77	41	64	5,29	12	356,2	1	356,2	
III	1		19,5x3	16,7x1		89	11		1,19	0,75	42	66	4,85	12,3	448,5	1,5	299	
	2		19,5x2	16,7x2		74,3	25,7		1,4	1	35	50	5,15	13,47	432,5	1,4	308,9	
	3		19,5x1	16,7x3		50,1	49,9		1,35	0,9	37	55	5	13	395	1,3	304	
IV	1		16,7x1	16,1x3		12,5	87,5	1,1	0,75	45	66	4,79	12,25	472,4	1,5	314,9		
	2		16,7x2	16,1x2		29,3	70,7	1,38	0,9	36	55	5,1	12,79	468,2	1,4	334,4		
	3		16,7x3	16,1x1		55,1	44,9	1,08	0,73	46	68	5,19	12,89	412,7	1,3	317,5		

Тадқиқот давомида ипларнинг тахтланиши ўзаро мос келган тўқималар солиштириб кўрилди. Асос вариант сифатида 100% пахта ипидан олинган I-гуруҳ тўқималари қабул қилинди. I-гуруҳ 1-вариантдаги ёпқичли тукли тўқиманинг асос ҳалқа ипи узунлиги 5,37 mm ва тукли ҳалқа ипи узунлиги 12,25 mm, юза зичлиги 455,3 g/m² ни ташкил қилди. Бунда тўқиманинг қалинлиги 1,4 mm бўлса, унинг ҳажмий зичлиги 325,2 mg/sm³ га тенг.

Тўқима таркибидаги тукли ип учун 38,4% йиғирилган ипак ипидан фойдаланилган, II-гуруҳ 1-вариантдаги тукли тўқиманинг асос ҳалқа ипи узунлиги 5,45 mm ва тукли ҳалқа ипи узунлиги 12,38 mm, юза зичлиги 393,8 g/m² ҳажмий зичлиги 357,2 mg/sm³ га, қалинлиги



эса 1,1 mm га тенглиги аниқланди. Ушбу қийматларни асос тўқима билан таққослаганда 1-вариантнинг асос ҳалқа ипи узунлиги асос тўқиманинг ҳалқа ипи узунлигидан 1,5% ва тукли ҳалқа ипи узунлиги 1,1% ошганлиги, юза зичлиги 13,5% га ва қалинлиги эса 21% га камайганлиги, ҳажмий зичлиги асос тўқиманинг ҳажмий зичлигидан 9,8% га ошганлиги маълум бўлди.

Тўқима таркибидаги асос ипи учун 11% йигирилган ипак ипидан фойдаланилган Ш-гуруҳ 1-вариантдаги тукли тўқиманинг асос ҳалқа ипи узунлиги 4,85 mm ва тукли ҳалқа ипи узунлиги 12,3 mm, юза зичлиги 448,5 g/m², қалинлиги эса 1,5 mm га, ҳажмий зичлиги 299 mg/sm³ га тенглиги аниқланди.

Вариантларни бир-бири билан ўзаро таққослаб, шундай хулосага келиш мумкинки, тўқима таркибидаги тукли ҳалқаларни йигирилган ипак ипидан фойдаланилганда ва ипак ипининг фоиз миқдори оширилганда тўқиманинг юза зичликлари ва қалинликларини камайишига, аммо ҳажмий зичликларини ошиб кетишига олиб келди. Тўқима таркибидаги асос ҳалқалари йигирилган ипак ипидан фойдаланилганда эса тўқиманинг юза зичлиги ва қалинлиги ошиб, ҳажмий зичлигини камайишига олиб келганлиги аниқланди. Ҳажмий зичликнинг камайиши хом ашё сарфининг тежалишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Шалов И.И., Далидович А.С., Кудрявин Л.А. Технология трикотажа. - Москва: Легкая индустрия, 1886. -49 с.
2. Умарова М.Н., Исабоев А.Э., Муқимов М.М. Асос ипи чизикли зичлигининг тукли трикотажнинг физик-механик хусусиятларига таъсири // Ж. Тўқимачилик муаммолари. – Т., 2005. - №3. – Б. 54-56.



TARAQQIYOTI SUSTLASHGANLIKNING KLINIK-PSIXOLOGIK TAVSIFI

O'raqov Shokir Ulashovich
Samarqand Davlat tibbiyot instituti
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
shokiruraqov74@mail.ru
Xidirova Aziza Abdullayivna
Samarqand viloyati Paxtachi tuman
7-maktab amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Taraqqiyoti sustlashgan bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari shu toifa bolalarning ruhiy xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan defektologlarni, oligofrenopedagoglarni qurollantirishdan iborat. Taraqqiyoti sustlashgan bolalar ta'lim tarbiyasini, korreksiyasini to'g'ri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari haqidagi bilimlar juda zarur.

Kalit so'zlar: Taraqqiyot, psixologiya, bolalar, zaif eshituvchi, nutqlari bo'zilgan, debillik, imbetsillik.

Taraqqiyoti sustlashgan bolalar psixologiyasi, maxsus psixologiyaning bir tarmog'i bo'lib, aqliy jixatdan turli darajada me'yordan chetlashgan bola va o'quvchilarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Taraqqiyoti sustlashgan bo'lish uchun 2 ta omil birga kelishi kerak. Bo'lardan biri – markaziy asab tizimining organik bo'zilishi, hamda shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg'un pasayishi yuz bergan bo'lsagina Taraqqiyoti sustlashgan deb e'tirof etish mumkin. Hayotda Taraqqiyoti sustlashganlarga o'xshagan bolalarni uchratish mumkin. Ammo, ularda bilish darajasi past bo'lsa-da, bosh miyada organik jarohatning yo'qligi bolaga Taraqqiyoti sustlashgan deyishimizga imkon bermaydi. Har qanday bosh miyaning organik bo'zilishlari Taraqqiyoti sustlashganlikka olib kelavermaydi. Taraqqiyoti sustlashganlik tushunchasi birmuncha keng tushunchadir. Buning ichiga xomila va ilk go'daklik davrida turli sabablar oqibatida bilish darajalarining pasayishi (oligofrenlar) xam, ikki yoshdan keyin bilish saviyalari pasaygan bolalar (dementsiya) ham kiradi. 2 yoki 3-nchi gurux nogironi deganda ma'lum kasallik tushunilmay, balki nogironning ish qilish kobiliyati tushuniladi.

Taraqqiyoti sustlashgan bola shaxsining shaqllanishiga irsiy, ijtimoiy omillar bilan birga, nuqson omili xam ma'lum darajada rol uynaydi. Asosiy rolni ijtimoiy muxit o'ynaydi. Umuman shaxs tushunchasi turli adabiyotlarda amalda yagona bir ma'noda qullanilmaydi. "Inson", "SHaxs", "Kishi", "Individ" kabi jumlar ko'p xollarda bir-birlariga uxshatiladi yoki bir-birlariga qarshi quyiladi.

Yordamchi maktab o'quvchilarining barcha faoliyat turlarida quyidagi kamchiliklar uchrab turar ekan.

Ma'lumki, xar qanday faoliyat ma'lum maqsad asosida amalga oshiriladi. Maqsadsiz faoliyatning bulishi bizningcha mumkin emas. Demak, Taraqqiyoti sustlashgan bolalar faoliyatida maqsadga qaratilganlik keskin bo'zilgan bo'ladi.

Rivojlanish, ta'lim-tarbiya davomida o'quvchilarda bilimlar, ko'nikma va malakalar, tajribalar yigilib boriladi. Taraqqiyoti sustlashgan bolalar o'zlarida bulgan tajribalarni yangi o'zlashtirilayotgan, egallanayotgan bilimlarga tadbiiq eta olmaydi.

Taraqqiyoti sustlashgan bolalardagi motivlarning torligi, o'z faoliyatlarini rejalashtira olmasliklari, faoliyatlarining natijalarini kura olmasliklari ko'zga tashlanadi.

Taraqqiyoti sustlashgan bolalarda so'z boyligi va lugat tarkibining kambagalligi oqibatida o'qituvchi va tarbiyachilarning ogzaki tushuntirishlarini tushunmaslik, ular diqqatining tarqoqligi, birinchi va ikkinchi signal tizimlari orasidagi nomuvofiqlik asosida kelib chiqadigan faoliyat kamchiliklari uchraydi.

Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniya ikki darajaga ajratiladi:

Debillik- birmuncha yengil daraja bulib, oligofreniyaning eng ko'p tarqalgan darajalaridir.

Imbetsillik — debil darajadan birmuncha ogir darajadir. Aqliy nuqsonning imbetsillik darajasida oligofreniyaning O'ziga xos xususiyatlari va namoyon bulishi birmuncha yaqqol kurinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В. Дружинина “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
2. V.M.Karimova Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi.- T., 2000



ВИДЕОКЕТМА-КЕТЛИКЛАРНИ ИНДЕКСЛАШ ДАСТУРИ

*Хашимов Ахмад Анварович
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент ахборот технологиялари
университети ҳузуридаги Ахборот-
коммуникация технологиялари илмий-
инновацион маркази кичик илмий ходими
Телефон:+998(99) 999 07 43
akhmadjon89@gmail.com
Кахаров Шукрулло Саъдулло ўғли
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент ахборот технологиялари
университети ҳузуридаги Ахборот-
коммуникация технологиялари илмий-
инновацион маркази таянч докторанти
Телефон:+998(90) 550 63 50*

Аннотация: Мақолада видеокетма-кетликларни индекслаш ва видео архивлардан қидириш дастурини яратиш жараёни келтирилган. Ушбу дастурни ишлаб чиқаришда берилган тасвири дастлабки қайта ишлаш, юз соҳасини ажратиш, белгиларни ажратиш ва шахсни таниб олиш босқичларида амалга оширилган ишлар ҳамда тизимнинг имкониятлари ёритилган.


Калит сўзлар: видеокетма-кетлик, юз тасвири, таниб олиш, белгиларни ажратиш, видео таҳлил.

Ҳозирги кунда видеокузатув асосида шахсни идентификация қилиш тизимлари кенг оммалашмоқда. Ушбу тизимларнинг асосий афзалликлари сифатида реал вақт ичида ишлаши, шахсни идентификация қилишдаги аниқлиги кабиларни келтириш мумкин. Шу билан бирга кўплаб ташкилотларда видеокузатув тизимининг архив видеоматериаллари мавжуд бўлиб, ушбу архив материалларини ҳам таҳлил қилиш зарурияти келиб чиқмоқда. Биз ишлаб чиқарётган дастурий маҳсулот архив видеокетма-кетликларни индекслаш имконияти билан ажралиб туради.

Дастурнинг асосий вазифаси – архивдаги видеоматериалларни таҳлил қилишдир. Ушбу дастурда юз тасвири соҳасини аниқлаш ҳамда юздан махсус белгиларни ажратиш жараёнлари ResNet[1] модели орқали амалга оширилган.

Дастурнинг функционал имкониятлари:


- видеони кадрлар бўйича таҳлил қилиб, тизимга маълум / номаълум шахснинг пайдо бўлиши / чиқиши ҳодисаларини индекслаш;
 - тизим маълумотлар базаси янгиланганда, индексланган видео кетма-кетликлар метамаълумотларини янгилаш;
 - видеоматериаллар архивдан керакли одам иштирок этган қисмларни ажратиш.
- 1-расмда дастурнинг асосий ойнаси келтирилган.



1-расм – Дастурнинг асосий ойнаси кўриниши



Менюда қуйидаги бўлимлар мавжуд: файлни танлаш; видеони сақлаш; ойнани беркитиш. Дастурдан фойдаланиш учун менюдан “Faylni tanlash” буйруғи берилди ва мулоқот ойнаси ҳосил бўлиб, керакли видеони танлаш мумкин. Керакли видео танланиб, “Videoni tahlil qilish” тугмаси босилади. Тугма босилгандан кейин дастур танланган видеони очиб, кадрлар бўйича ўзида мавжуд маълумотлар базаси асосида шахсларни идентификация қилиш жараёнини амалга оширади (2-расм).



2-расм – Видеотаҳлил жараёни

Видеотаҳлил якунланиши билан дастурда бу ҳақда хабар ойнаси пайдо бўлади ва таҳлил натижалари намойиш этилади. Бу ерда тизим видеода аниқланган янги шахслар учун автоматик уникал рақам бериб кетган. Ойнанинг пастки қисмидаги видеонинг қайси кадрда тизимга маълум/номаълум шахс учраганлиги белгиланган ва ушбу кадрга слайдер ёрдамида ўтиш имкони мавжуд. Видеода ҳар бир учраган шахс битта ранг билан белгиланган.

Дастурда агар керакли шахсга тегишли кадрларни филтрлаш учун ойнанинг аниқланган шахслар бўлимида керакли шахс икки марта чертилиши зарур. Бунда графикда фақат шу шахсга тегишли кадрлар белгиланади. Фойдаланувчи керакли кадрларни слайдер ёрдамида кўриши мумкин. Дастурнинг асосий афзалликларидан бири – битта видео бир марта таҳлил қилингандан кейин ушбу видеонинг таҳлили натижалари метамаълумот кўринишида сақланади. “Видеони таҳлил қилиш” тугмаси босилганда агар ушбу видео тизимда таҳлил қилинган бўлса, натижалар намойиш этилади.

Таҳлилни амалга оширилгандан сўнг аниқланган шахслар бўлимида тизимда аниқланган шахслар устида сичқонча ўнг тугмаси босилса 6-расмда контекст меню ҳосил бўлади. Ушбу қисм орқали аниқланган шахслар ҳақида маълумотларни киритиб бориш мумкин. Тизим рўйхатга олган шахслар ҳақидаги маълумотларни махсус ойна орқали таҳрирлаш мумкин.

Ушбу дастур турли йўналишда фаолият кўрсатувчи кўплаб корхоналарда қўлланилиши ҳамда мавжуд видеоматериаллар асосида корхонадаги шахслар ҳаракати ҳақидаги маълумотларни тўплаш имкониятини яратиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. He K., Zhang X., Ren Sh., Sun J. Deep Residual Learning for Image Recognition. – <https://arxiv.org/abs/1512.03385>.

2. Фазилов Ш.Х., Кахаров Ш.С. Юз тасвирдан юз элементларини ажратиш олиш алгоритмлари //Информатика ва энергетика муаммолари. – Тошкент, 2020. – №3. – 116-123 б.



INTERNET TARIXI

Saidaxmadova Xurshida G'ulomjon qizi
Buxoro viloyati Qorako'l tumani
20-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Informatika va A T fani o'qituvchisi
Telefon(+99899506 3507)

Annotatsiya: Maqolada internet tarixi, shuningdek unga hissa qo'shgan olimlar va boshqa tarmoqlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'z: "ArpaNet", "TelNet", "MilNet", "WWW", "ETHEMET"

Bugungi kunda juda ko'pchilik ishbilarmon shaxslar o'z hayoti va faoliyatini internetsiz tasavvur eta olmasliklari aniq. Dunyoning turli chekkasida ro'y berayotgan yangiliklardan shu tarmoq orqali bilib olamiz. Xorijda tahsil olayotgan yoki yashayotgan yaqinlarimizga sanoqli soniyalar ichida yetib boradigan maktublar yozamiz. Xo'sh, shunday ekan, mana shu global tarmoq tarixi qanaqa? U qachon paydo bo'lgan? Mana shu kabi savollarga javob izlasak..

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, internet ildizi 50-yillarga borib taqaladi. Hammasi 1949-yilda sobiq ittifoq atom bombasini sinovdan o'tkazilganida boshlangandi. 1956 yil Pentagon vahima ko'tarib hukumatga raketadan himoya qiluvchi vosita yaratilishi uchun mablag' berishini so'rab murojaat etadi. Ammo rad javobini oladi. 1957 yilda sobiq SSSRda yerning ilk sun'iy yo'ldoshi uchiriladi. Ya'ni endilikda Rossiyada yadro zaryadini dunyoning istalgan chetiga yetkazib berish vositasi paydo bo'lgandi. 1958 yil Pentagon yana bir bor hukumatga yordam so'rab, murojaat etadi va bu safar u o'z maqsadiga erishadi. Shunda xabarni zudlik bilan yetkazish tizimini vujudga keltirishga qaror qilgandi. Yer osti markazi ishga tushirilganda uning kompyuterlari shimoliy kontinentdan kelib tushayotgan ma'lumotlarni gigant global tarmoq orqali qayta ishlay boshlagandi. 60-yillarga kelib esa AQSHda kompyuterlarning ulkan tarmog'i harakatga tushadi. Boshqa manbalarda keltirilishicha Amerika mudofaa vazirligi bir paytlar o'z mablag'i evaziga mamlakatning eng yirik universitet va ilmiy markazlarini birlashtirish harakatiga tushib qoladi. Ularning istagi olimlarning o'ta muhim loyihalar ustidan hamjihatlikda bosh qotirishlaridan iborat edi. Bu ish bilan Pentagonning DARPA bo'limi shug'ullanadi va 1969 yil bo'lajak internetning ilk ko'rinishi ARPANET vujudga keladi. Natijada har bir Amerikalik o'quvchi internet bu: "Pentagon jahonga taqdim etgan XX-asrning ajoyib ixtirosi" ekanligi haqida xabar topgandi. Xullas, birlashgan internet tarmog'i 1980-yildan boshlab vujudga kelib internet texnologiyasiga o'tish 1983-yilning yanvar oyida o'z nihoyasiga yetadi. Shu vaqtning o'zida muhofaza kommunikatsiya agentligi ARPANETni ikki mustaqil tarmoqqa bo'lib yuboradi. Ularning biri keyingi tadqiqotlar uchun ikkinchisi esa harbiy aloqalar uchun edi. Tadqiqot tarmog'ining nomi ARPANET bo'lib qoladi, harbiy bo'lim esa undan kattaroq bo'lib, MILNET nomini oladi.

Bugungi kunda internetga bo'lgan talab va ehtiyoj soat sayin o'smoqda.

COMPUTER ALMANAC INDUSTRY INC. bergan hisobotga ko'ra 1998 yil butun dunyo bo'yicha 147 mlndan ortiq kishi internetdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan. 1967 yil Larni Roberts ARPA kompyuterlarini o'zaro bog'lashni taklif etadi. ARPANETni vujudga keltirish bo'yicha ish boshlab yuborildi.

1969 yil ARPANET ishga tushadi. Unga AQSHning harbiy bo'lmagan hamda laboratoriya va tadqiqot markazlari kompyuterlari ulangan edi.

1974 yil ARPANETning ilk tijorat versiyasi –TELENET vujudga keladi.

1976 yil XEROX tadqiqot kompaniyasi laboratoriyasi xodimi Robert Metkalf ilk lokal kompyuter tarmog'i ETHEMETni yaratgan.

1991 yil CERN Yevropaning fizika laboratoriyasi barchaga yaxshi tanish bo'lgan protokol WWW-WORLD WIDE WEBni yaratadi. Internet orqali tarqaladigan ilk kompyuter viruslari ham paydo bo'ldi.

WWWda axborot maxsus sahifalarda, ya'ni Veb-sahifalarda joylashadi. Veb-sahifaga matn, rasm, tovush, videotasvir va hokazo ko'rinishdagi axborotlarni joylashtirish mumkin. Bu esa o'z navbatida reklama, tijorat, ta'lim va boshqa ko'pgina soha va kishilarga beqiyos imkoniyatlar ochib berdi. Masalan, juda ko'p kinostudiyalar o'z mahsulotlarini reklama qilish uchun Veb-sahifalar yaratishadi. Mazkur Veb-sahifalarda asosan yangi filmlar haqidagi ma'lumotlar bilan



birga shu filmlardan 1-2 daqiqali parchalar aks ettiriladi. WWW yaratilgunga qadar bunday imkoniyat faqat kinoteatrlar yoki televideniye orqaligina mavjud edi.

Kinoteatr va televideniye orqali namoyishlar belgilangan vaqtga bog‘liq bo‘lsa, WWW dan xohlagan kishi istalgan vaqtda yangi filmlar haqida to‘liq ma’lumot olishi mumkin.

1998 yil Internetning maxfiyligi uchun kurash olib boriladi. Liviya o‘tgan internet konferensiyasidan so‘ng Liviya bojxona xodimlari bu yig‘inga tashrif buyurgan bir qator ishtirokchilardan disketlarni tortib oladi. Bojxona xodimlari o‘zlarining bu harakatlarini internetchilar ushbu disketlardan foydalanib, mamlakatdan qimmatbaho ma’lumotlarni olib chiqib ketishlari mumkin deya izohlagandilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Azimjanova, T.Muradova, M.Pazilova. Informatika va axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, –T: 2013y
2. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informatsion texnologiyalar. Darslik. – T.: TDYuI. 2004 y.
3. <http://ru.wikipedia.org> – erkin ensiklopediya «Vikipediya»

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(16-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000